

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI
JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
TABIATSHUNOSLIK VA GEOGRAFIYA FAKULTETI
GEOGRAFIYA VA UNI O'QITISH METODIKASI KAFEDRASI

“Himoyaga ruxsat beraman”
Tabiatshunoslik va geografiya
fakulteti dekani

_____ b.f.n. G'.Qodirov
 “_____” _____ 2013 y.

5140500 - “Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari” yo'nalishi bo'yicha
 bakalavr darajasini olish uchun

O'zbekistonda chorvachilikni rivojlantirish istiqbollari
 mavzusida bajarilgan

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Bajaruvchi: Muratova Lobar

Ilmiy rahbar: g.f.n., dots. QURBONOV K.

BMI “Geografiya va uni o'qitish metodikasi”
kafedrasi yig'ilishining _____ 2013 y.
№__ sonli qarori bilan himoyaga tavsiya etilgan.

Kafedara mudiri:

g.f.n. Q.Hakimov

JIZZAX-2013

M U N D A R I J A

	KIRISH	3-5
I - BOB	O'ZBEKISTONDA QISHLOQ XO'JALIGI TARMOG'INING GEOGRAFIK XUSUSIYATLARI	
1.1	Chorvachilikning xalq xo'jaligidagi ahamiyati.....	6-8
1.2	O'zbekiston qishloq xo'jalik tarmog'i yo'nalishlarining hududiy-geografik tavsifi.....	8-13
1.3	O'zbekistonda chorvachilikning rivojlanish bosqichlari.....	13-19
	O'ZBEKISTON CHORVACHILIK	
II- BOB	YO'NALISHLARINING UMUMIY – GEOGRAFIK TAVSIFI	
2.1	An'anaviy va yangicha chorvachilik yo'nalishlarining iqtisodiy ahamiyati.....	20-28
2.2	Chorvachilik yo'nalishlarining hududiy imkoniyatlari.....	28-36
2.3	Chorvachilikni rivojlantirishga ta'sir ko'rsatuvchi omillar....	37-39
III -BOB	O'ZBEKISTONDA CHORVACHILIKNI RIVOJLANTIRISHGA ZAMONAVIY YONDASHUV	
3.1	Intensiv chorvachilikni rivojlantirish omillari.....	40-45
3.2	O'zbekistonda chorvachilik majmualarini hududiy joylashtirishning yangicha imkoniyatlari.....	45-50
	XULOSA.....	51-54
	FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	55-57

Kirish

O'zbekiston qishloq xo'jaligining asosiy tarmoqlaridan bo'lgan chorvachilikning qadimiy markazlaridan biri. Respublikaning tuproq va tabiiy iqlim sharoitlari – unumdor sug'oriladigan erlar, bepoyon qir – adirlar, dasht – cho'l va tog' oldi yaylovlari chorvachilikning rivoji uchun qulay. Sug'oriladigan erlarda asosan qoramolchilik, cho'chqachilik, parrandachilik, quyonchilik, asalarichilik, qir – adirlar, dasht – cho'l va tog' oldi yaylovlarida esa qo'ychilik, echkichilik, yilqichilik, tuyachilik, suv havzalarida baliqchilik rivojlangan.

Respublika aholisining oziq-ovqat bilan muntazam ta'minlab borishda qishloq xo'jaligi hayvonlari, parrandalari, baliq va asalarilarini ko'paytirish, shuningdek mahsulot ishlab chiqarish hajmlarini oshirish bugungi kunning dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Prezidentimiz Islom Karimovning 2012 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari hamda 2013 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi “Bosh maqsadimiz – keng ko'lamli islohotlar va modernizasiya yo'lini qat'iyat bilan davom ettirish” ma'ruzasida ta'kidlanganidek, mamlakatimizda aholi daromadlarining oshib borishi bilan uning tarkibi o'zgarib, tadbirkorlik faoliyatidan olinayotgan daromad hajmi ortmoqda. 2000 yil bilan taqqoslaganda, real daromad aholi jon boshiga 8,6 barobar ko'paydi.

Mavzuning dolzarbligi. Asrlar davomida chorvachilik sohasi O'rta Osiyo xalqlarining iqtisodiy va ijtimoiy hayotida muhim o'rin tutgan. Iqtisodiyotning o'tish davrida ko'plab tarmoqlarda ishlab chiqarish hajmi kamayib, odamlarning qo'shimcha daromad olish imkoniyatlari cheklangan murakkab yillarda ushbu soha qishloq joylarda aholi farovonligi darajasini barqaror saqlab turishga salmoqli hissa qo'shdi. CHorvachilik qishloq aholisi uchun oziq-ovqat

va daromad olishning muhim manbaiga aylandi. Bozor iqsosodiyoti mexanizmlari faollashib, oziq-ovqatga talab ortib borayotgan ushbu kunda mazkur soha samaradorligini va raqobatdoshligini yanada oshirish vazifasi muhim ahamiyat kasb etadi. SHu maqsadda O'zbekistondagi BMTTD qishloq joylardagi turmush darajasini yuksaltirish uchun ham dehqon, ham fermer xo'jaliklarini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlamoda. Bu O'zbekistonning 2015 yilga qadar Turmush darajasini yaxshilash bo'yicha Mingyillik Taraqqiyot Maqsadi sari qo'yilgan muhim qadamdir.

Ishning o'rganilganlik darajasi. O'zbekistonda chorvachilik (Q.A. Abirqulov), agrar-sanoat majmuini (A.R.Ro'ziev va A.M.Sodiqov) o'rganish bo'yicha qator tadqiqotlar amalga oshirilgan. Qishloq xo'jaligini turli regionlar va tarmoqlar bo'yicha tashkil etish muammolari bilan Z.M.Akramov, R.A.Hodiev, T.E.Egamberdiev, T.Tojimonov, S.S.Saidkarimov, T.Jumaev, K.K.Qurbonov, SH.Azimov, R.U.Usmonov va boshqalar shug'ullanganlar.

Bitiruv ishining maqsadi: Respublikamiz mustaqillikka erishganidan buyon chorvachilikni rivojlantirishga, chorva mahsulotlarini ko'proq etishtirish bilan birga ularning sifatini yaxshilash va tannarxini arzonlashtirishga katta e'tibor berilmoqda. Bu borada mustahkam em – xashak bazasini yaratish, mollar tuyog'ini ko'paytirish, naslchilik ishlarini yaxshilash, chorvachilik tarmog'ini jadallashtirish va ixtisoslashtirish, shuningdek, sutchilik komplekslari va chorvachilik fermalarini tashkil etish muhim vazifaga aylangan. CHorvachilik qishloq xo'jaligining muhim tarmog'i ekanligi hisobga olinib, respublikamizda mazkur sohada qilinayotgan ishlar, o'tkazilayotgan tadqiqotlarni o'rganib chiqqan holda sohani rivojlantirish uchun zarur tavsiya va takliflar ishlab chiqish.

Tadqiqot ob'ekti va predmeti: qishloq xo'jaligi haqidagi mulohazalar ishning ob'ekti, qishloq xo'jaligining aynan chorvachilik tarmog'i to'g'risidagi fikrlar ishning predmeti hisoblanadi.

Bitiruv malakaviy ishining tuzilishi: Ish kirish, uch bob, xulosa, adabiyotlarni o'z ichiga qamrab oladi. Uning birinchi bobi "O'zbekistonda qishloq xo'jaligi tarmog'ining geografik xususiyatlari" deb nomlanib, chorvachilikning xalq xo'jaligidagi ahamiyati, O'zbekiston qishloq xo'jalik tarmog'i yo'nalishlarining hududiy – geografik tavsifi, mamlakatda chorvachilikning rivojlanish bosqichlari haqida batafsil yoritilgan.

Bitiruv malakaviy ishining ikkinchi bobi "O'zbekiston chorvachilik yo'nalishlarining ilmiy – geografik tavsifi" nomi bilan atalgan bo'lib, bunda an'anaviy va yangicha chorvachilik yo'nalishlarining iqtisodiy ahamiyati, chorvachilik yo'nalishlarining hududiy imkoniyatlari, tarmoqni rivojlantirishga ta'sir ko'rsatuvchi omillar nazariy jihatdan tahlil qilinadi.

Bitiruv malakaviy ishining uchinchi bobi "O'zbekistonda chorvachilikni rivojlantirishga zamonaviy yondoshuv" deb nomlangan bo'lib, unda intensiv chorvachilikni rivojlantirish omillari, O'zbekistonda chorvachilik majmualarini hududiy joylashtirishning yangicha imkoniyatlari va ulardan foydalanishni takomillashtirish istiqbollari yoritildi. Bitiruv malakaviy ishining xulosa qismida tadqiqot natijalari bo'yicha olingan xulosa, taklif va tavsiyalar o'z aksini topgan.

Ishni bajarishda turli xil statistik, kartografik materiallardan keng foydalanilgan.

I - BOB. O'ZBEKISTONDA QISHLOQ XO'JALIGI TARMOG'INING GEOGRAFIK XUSUSIYATLARI

1.1. Chorvachilikning xalq xo'jaligidagi ahamiyati

Qishloq xo'jaligi O'zbekiston iqtisodiyotining muhim va etakchi tarmoqlaridan biri hisoblanib, unda aholining 1/3 qismiga yaqini banddir.

O'zbekistonning iqlimi, er – suv va mehnat resurslari qishloq xo'jaligining muhim serdaromad va ko'p mehnat talab qiladigan paxtachilik, pillachilik, lubkorlik, sholikorlik, uzumchilik, bog'dorchilik, sabzavot – polizchilik, qorako'lchilik kabi tarmoqlarini rivojlantirish uchun imkoniyat yaratgan. Bular respublika qishloq xo'jaligining etakchi tarmoqlaridir.

Oktyabr to'ntarishiga qadar qishloq xo'jaligi Turkiston o'lkasining asosiy ishlab chiqarish tarmog'i bo'lib, omoch, so'qa, mola – asosiy ishlab chiqarish qurollari hisoblanardi. Asosiy ishlar qo'lda bajarilgan, mineral o'g'it bo'lmagan, natijada qishloq xo'jaligi ekstensiv xarakterda bo'lgan.

Turkistonda paxta jami qishloq xo'jalik mahsulotining 40 foizini tashkil qilgan. Hozirgi O'zbekiston hududida 1913 yilda hammasi bo'lib 512,2 ming tonna paxta yig'ib olingan, o'rtacha hosildorlik gektar boshiga 12,2 sentnerdan oshmagan.

Iqtisodiy qoloqlik, mustamlaka siyosati O'zbekistonning qulay iqlimi, unumdor er va suv resurslaridan samarali va oqilona foydalanish imkonini bermasdi.


Oktyabr to'ntarishidan keyin qishloq xo'jalik ishlab chiqarishining yangi shakllari vujudga keldi.

Chorvachilik qishloq xo'jaligining g'oyat muhim tarmog'i bo'lib, xalqimizni oziq – ovqat mahsulotlari hisoblangan go'sht va go'sht mahsulotlari, sut mahsulotlari, tuxum, shuningdek, engil sanoatni turli xil xom ashyo – jun,

turi, mo'yna, qoraqo'l teri, tivit va boshqa mahsulotlar bilan ta'minlashda muhim ahamiyatga ega.

CHorvachilikning yem – xashak bazasini mustahkamlash, chorva mollari va parrandalarni xilma – xil vitaminli oziqlar bilanyil mobaynida uzluksiz ta'minlab turish chorvachilikning asosiy sharti hisoblanadi.

G'allachilik, mevachilik, sabzavotchilik, paxtachilik va bog'dorchilik kabi sohalarning rivojlanishi ham chorvachilikning ravnaq topishi uchun muhim ahamiyatga ega. Chunki g'allachilikda etishtiriladigan don mahsulotlari, somon va poxol chorva mollari uchun qimmatli oziq hisoblanadi. Mevachilik va sabzavotchilik chiqindilari ham har xil hayvonlar uchun sersuv va vitaminli oziq sifatida ishlatiladi. Paxtachilikdan chiqadigan chigit kunjarasi, shulxa va g'o'zapoya kabilar chorva mollari uchun to'yimli oziq hisoblanadi va hakoza.



Hozirgi vaqtda chorvachilik eng sertarmoqli sohalardan biridir. Uning asosiy tarmoqlari qoramolchilik, qo'ychilik, echkichilik, cho'chqachilik,

parrandachilik, yilqichilik, tuyachilik, quyonchilik, mo'ynachilik (norkachilik, nutriyachilik va hakoza), asalarichilik, ipakchilik 'o'lsa, keyingi yillarda u yangi tarmoqlar, ya'ni ko'l baliqchiligi, bedanachilik kabi sohalar bilan boyidi.

CHorvachilik tarmoqlarini rivojlantirishning muhim omillaridan yana biri ularni ixtisoslashtirish, yiriklashtirish va markazlashtirish hamda jadallashtirishdan iborat. Buning uchun mustahkam va barqaror em – xashak bazasini yaratish, em – xashakdan unumli foydalanish, isrofgarchilikka yo'l qo'ymaslik, ularning to'yimlilikini oshirish va sifatini yaxshilash, ayniqsa, tarkibidagi oqsil miqdorini ko'paytirish, sun'iy usulda vitaminlar, aminokislotalar, mikroelementlar, antibiotiklar va o'stiruvchi moddalar ishlab chiqarish talab qilinadi. CHorvachilik tarmog'ini jadal rivojlantirishda omixta em, donador va briket oziq tayyorlash ishlari muhim ahamiyatga ega.

CHorvachilikni rivojlantirish ko'p jihatdan chorva mollari va parrandalar mahsuldorligiga bog'liq. SHuningdek, naslchilik va seleksiya ishlarini takomillashtirish, yangi sermahsul zot va guruhlar yaratish, mavjud zotlarni yaxshilash, duragaylash ishlarini kengaytirish, sanoat asosida chatishtirish tadbirlarini joriy etish muhim vazifalardan hisoblanadi.


CHorvachilikni jadal rivojlantirish ko'p jihatdan fan yangiliklari, ilg'or tajriba, yangi texnika va texnologiyani tezroq joriy etishga ham bog'liq.

1.2. O'zbekiston qishloq xo'jalik tarmog'i yo'nalishlarining hududiy-geografik tavsifi

Qishloq xo'jaligi - moddiy ishlab chiqarishning asosiy tarmoqlaridan biri. Dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlari olish uchun ekinlar ekish va chorva mollarini ko'paytirish bilan shug'ullanadi, aholini oziq-ovqat mahsulotlari va xalq xo'jaligining bir qancha tarmoqlarini xom ashyo bilan ta'minlaydi. Qishloq xo'jaligi o'simlik va hayvon mahsulotlarini dastlabki qayta ishlashning turli tarmoqlarini ham o'z ichiga oladi. Moddiy ishlab chiqarishning boshqa jami

sohalaridan farq qilgan holda qishloq xo'jaligi juda katta maydonlarda va hududiy xilma xil sharoitlarda olib boriladi. Unda er (asosiy ishlab chiqarish vositasi), yorug'lik, issiqlik, suv va tirik organizmlar — o'simlik va hayvonlardan foydalaniladi. Qishloq xo'aligining ishlab chiqarish davri ish davri bilan mos tushmaydi. Qishloq xo'jaligining asosiy tarmoqlari — dehqonchilik va chorvachilik. Ular ham o'z navbatida bir qadar kichikroq tarmoqlarga bo'linadi (dehqonchilikda — dalachilik, sabzavotchilik, polizchilik, bog'dorchilik, o'rmon xo'jaligi va b.; chorvachilikda — qoramolchilik, qo'ychilik, yilqichilik, cho'chqachilik, parrandachilik, asalarichilik, pillachilik va b.); O'z navbatida, dehqonchilik va chorvachilik tarmoklari ekiladigan ekinlar (g'allachilik, sholikorlik, paxtachilik) va chorva mollari turlari (qoramol, qo'y, ot, tuya) bo'yicha guruhlanadi.

Qishloq xo'jaligi — inson xo'jalik faoliyatining dastlabki turlaridan biri. Uning kelib chiqishi tosh davri oxiriga borib taqaladi.



Bu davrda inson xo'jalik va boshqa ehtiyojlarini qondirish uchun erni oddiy qurollar bilan ishlagan, ba'zi hayvonlarni xonakilashtira boshlagan. Asrlar davomida turli sharoitlar ta'sirida dehqonchilik tizimi o'zgargan va takomillashgan; hayvonlarning foydali xususiyatlari parvarishlangan, ko'plab zotlari etishtirilgan.

Jahon qishloq xo'jaligida dunyodagi iqtisodiy faol aholining 45,2% (1316,7 mln. kishi) band. Qishloq xo'jaligida foydalaniladigan erlar 13387,0 mln. ga, jumladan, haydaladigan erlar 1380,8 mln. ga, jami sug'oriladigan erlar 271,4 mln.ga (1998). 1999 y.da jahon qshloq xo'jaligida 583,6 mln.t bug'doy, 596,4 mln. t sholi, 600,4 mln. t makkajo'xori, 130,0 mln. t arpa, 294,3 mln. t kartoshka, 444,6 mln. t mevalar, shu jumladan 60,6 mln. t uzum etishtirildi. CHorvachilikda 225,9 mln. t go'sht, 562,4 mln. t sut tayyorlandi. 1338,2 mln. bosh qoramol, 912,7 mln. cho'chqa, 1068,6 mln. qo'y va 709,9 mln. bosh echki, 14139,0 mln. tovuq boqildi.

1-jadval

2011 yilda hududlar bo'yicha go'sht va sut ishlab chiqarish

№	Viloyatlar	Go'sht ishlab chiqarish		Sut ishlab chiqarish	
		Ming tonna	%	Ming tonna	%
1	Qoraqalpog'iston Respublikasi	28.4	3.9	146.6	2.9
2	Andijon	45.3	6.3	446.5	8.8
3	Buxoro	63.4	8.8	429.2	8.4
4	Jizzax	60.9	8.4	276.1	5.4
5	Qashqadaryo	82.7	11.4	529.6	10.4
6	Navoiy	46.5	6.4	221.2	4.3
7	Namangan	38.7	5.3	314.3	6.2
8	Samarqand	94.8	13.1	658.6	12.9
9	Surxondaryo	57.5	7.9	443.1	8.7
10	Sirdaryo	20.4	2.8	163.3	3.2
11	Toshkent	88	12.2	464.5	9.1
12	Farg'ona	48.9	6.8	477.1	9.4
13	Xorazm	48.3	6.7	527.4	10.3

Manba: O'zbekiston Respublikasi statistika qo'mitasi ma'lumotlari

Qishloq xo'jaligi geografiyasi — qishloq xo'jaligini hududiy tashkil etish va rivojlanish qonuniyatlarini o'rganadigan fan sohasi, iqtisodiy va ijtimoiy geografiya tarmog'i. Turli mamlakat va rayonlar qishloq xo'jaligini majmuali o'rganish va bashorat qilish, tabiiy sharoit va resurslarni qishloq xo'jaligi nuqtai nazaridan baholashga doir tadqiqotlar olib boradi. Qishloq xo'jaligi iqtisodiyotning tarmog'i sifatida aholining qishloq xo'jaligi mahsulotlariga, sanoatning xom ashyoga bo'lgan ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiladi. Iqtisodiyotning boshqa tarmoqlaridan farq kilib, qishloq xo'jaligi joyning agroiklimiy resurslari bilan chambarchas bog'liq, shuningdek, er qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida mehnat vositasi hamda predmeti hamdir. Qishloq xo'jaligi tarmoqlarining joylashuvi va rivojlanishiga joyning tabiiy sharoiti (asosan, rel'efi va iqlimi), resurslari (er, suv, hayvon va o'simliklari), ijtimoiy-iqtisodiy, transport, ekologik va b. omillar bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Qishloq xo'jaligi olib boradigan tadqiqotlar er fondi va undan foydalanish hamda xaritalashtirish, qishloq xo'jaligi ekinlarining tarqalishi, agroikqtisodiy tarmoqlari va ularning korxonalarini hududiy tashkil etish, rivojlantirish, qishloq xo'jaligini rayonlashtirish masalalarini o'z ichiga oladi.

Qishloq xo'jaligi yerlari -xo'jaliklar tomonidan ishlab chiqarish vositasi sifatida rejali va uzluksiz foydalaniladigan er uchastkalari va massivlari, ekinzorlar (haydalma erlar), ko'p yillik ekinzorlar (bog'lar, rezavor meva maydonlari), pichanzorlar, yaylovlar hamda qo'riq-bo'z erlar. Sug'orma dehqonchilik mintaqalarida qishloq xo'jaligi erlariga haydalma erlar, qo'riq erlar, tomorqa erlari, ihota o'rmon mintaqalari, ko'p yillik ekinzorlar, pichanzorlar, yaylovlar kiradi. Ko'p yillik ekinzorlar — ekilgan daraxtzorlar, butazorlar va o'tsimon o'simliklar (bog'lar, uzumzorlar, rezavor mevali maydonlar) bilan band bo'lgan er uchastkalari. Pichanzorlar — o't-o'lani pichan uchun o'riladigan er maydonlari. Pichanzorlar ko'lob, kuruq va botqoklangan turlarga bo'linadi. Xo'jaliklar erlari doirasida pichanzorlarning bo'lishi va ularning turlari hududning tuzilishi va tabiiy sharoitlari bilan belgilanadi. Yaylovlar — mollar o'tlatib boqiladigan er maydonlari; shuningdek, pichani o'rib olinmaydigan va qo'riq hisoblanmaydigan

erlar ham yaylovga kiradi. Ishlab chiqarishni intensivlash va xo'jalikning ichki er rezervlari o'zlashtirilishi natijasida qishloq xo'jaligi erlarining tuzilmasi takomillashadi, foydalaniladigan er hissasi oshadi.

Sho'rlangan yerlar meliorasiyasi, tuproq eroziyasiga qarshi kurash tadbirlari, sug'oriladigan madaniy yaylovlar barpo etish va boshqa qishloq xo'jaligi erlaridan foydalanishning yaxshilanishiga yordam beradi. O'zbekistonda jami qishloq xo'jaligi erlari 26,7 mln. ga, shundan asosiy qishloq xo'jaligi ekinlarining umumiy maydoni 3785,1 ming ga ni tashkil qildi

1.3. O'zbekistonda chorvachilikning rivojlanish bosqichlari

CHorvachilik - qishloq xo'jaligining asosiy tarmoklaridan biri. CHorvachilik mahsulotlari etishtirish uchun chorva mollarini boqish va urchitish bilan shug'ullanadi; aholini ish hayvonlari (ot, ho'kiz, tuya, bug'u), oziq-ovqat mahsulotlari (sut, qatiq, go'sht, yog', tuxum va b.), engil sanoatni xom ashyo (jun, teri, mo'yna va h.k.), dehqonchilikni organik o'g'it bilan ta'minlaydi. CHorvachilik mahsulotlari va chiqindilaridan ayrim ozuqalar (yog'i olingan sut, go'sht-suyak uni, suyak uni va b.), shuningdek, har xil dori-darmonlar (shifobaxsh zardoblar, gormonal preparatlar va b.) olinadi. CHorvachilikning taraqqiy etishi va mahsuldorligi dehqonchilikning rivojlanishi, erdan intensiv foydalanish bilan chambarchas bog'liq. CHorvachilikning asosiy tarmoqlari: qoramolchilik, qo'ychilik, echkichilik, yilqichilik, tuyachilik, parrandachilik, asalarichlik, cho'chqachilik, quyonchilik, darrandachilik, bug'uchilik, itchiliklar iborat. Jahon mamlakatlarida tabiiy-iqlim sharoitlari va ozuqa bazasiga ko'ra chorvachilik rivoji o'ziga xos xususiyatlarga ega. Jahon chorvachiligida (mln. bosh) qoramol - 1338,2; qo'y - 1068,6; echki - 709,8; buyvol — 158,6; ot — 61,095; xachir — 14,1; eshak — 43,4; tuya — 19,1; cho'chqa — 912,7; tovuq — 14139; kurka — 244 va b. boqiladi va ulardan turli mahsulotlar etishtirish muhim o'rinda turadi (1999). Go'sht etishtirish hajmi 225,9 mln. t ni, sigir suti etishtirish 480,6 mln. t ni (yoki har bir sigirdan o'rtacha 2071 kg ni) tashkil etdi.

CHorvachilik inson tomonidan yovvoyi hayvonlarni ovlash va ularni

xonakilashtirish maqsadida qo'lga o'rgatishdan boshlangan. Arxeologik dalillar hayvonlarni xonakilashtirish yangi tosh davrida — neolitda bundan 15—10 ming yil avval boshlanganini ko'rsatadi. Bu davrda odam takomillashgan tosh qurollarga ega bo'lgan, olovni bilgan va sopol idishlardan foydalangan. Eng avval it, so'ngra cho'chqa, qo'y va keyinchalik qoramollar va otlar (7—8 ming yillar ilgari) xonakilashtirilgan. Osiyoning janubi-g'arbiy qismi va O'rta dengiz atroflari hayvonlarni xonakilashtirishning asosiy markazlari hisoblanadi. Evropada qoramollar, ot, qo'y, echki, cho'chqa, quyon, it, parrandalardan o'rdak va g'ozlar, Osiyoda buyvol, qo'tos, o'rkachli va o'rkachsiz tuyalar, qoramol, echki, qo'y, cho'chqa, ot, it, quyon, tovuq, o'rdak, g'oz va tovuslar xonakilashtirilgan. Afrikada qoramollar, bir o'rkachli tuya, eshak, cho'chqa, mushuk, it, sesarka tovuqlar, qo'y va echkilar qo'lga o'rgatilgan. Amerikada o'rkachsiz tuyaning ikki turi — lama va al'paka, dengiz cho'chqasi, kurka va muskus o'rdaklar xonakilashtirilgan. Natijada inson tomonidan ularning sifat va son ko'rsatkichlariga ahamiyat berilib, hayvonlardan nasl olish, sekin-asta mahsulot yo'nalishlari bo'yicha zotlari chiqarilgan. O'rta Osiyo hududi ham chorvachilik dastlab shakllangan hududlar qatoriga kiradi.

CHorvachilik ko'chmanchilik hayot tarzini vujudga keltirdi. Daryo bo'yi, cho'l va tog' oldi, ko'l atroflarida ovchilik, balikchilik bilan shug'ullangan jamoalarning madaniyatlari rivojlanib borgan sayin chorvachilik ham rivojlanib bordi. Jumladan, Xorazm hududida Amudaryoning quyi havzasida topilgan Kaltaminor madaniyati mil. av. 4—3-ming yillikda yashagan ovchilar va baliqchilar jamoasi madaniyatlaridan biri hisoblanadi.

Mil. av. 2—1-asrlarda Davan (Farg'ona)da dehqonchilik madaniyati va yilqichilik yuksak darajada rivojlangan. Aeecmojxa keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra, sut va go'sht beradigan qoramolchilik, qo'ychilik, yilqichilik, sut va go'sht mahsulotlarini qayta ishlash ixtisoslashgan soha sifatida bundan 3000 yil oldin shakllangan. 20-asr boshlariga qadar O'zbekistonda ko'chmanchilik bilan uzviy bog'liq bo'lgan qo'ychilik, echkichilik, tuyachilik, otchilik, shuningdek, vohalarda qoramolchilik ko'proq rivojlandi.

O'zbekiston hududida 1916 yil qoramollar soni 1342 ming boshni, shu jumladan, sigirlar 481 ming boshni, qo'y va echkilar 3821 ming boshni, otlar 517 ming boshni tashkil qilgan.



20-asrning 20-yillaridan boshlab chorvachilikning ilmiy bazasini yaratish, hududlarning tabiiy-iqtisodiy sharoiti va ozuqa bazasi resurslariga qarab mintaqalar bo'yicha rivojlantirish ishlari boshlandi. Sug'orma dehqonchilik hududlaridagi xo'jaliklarda sut, sut va go'sht yo'nalishidagi qoramolchilik, parrandachilik va cho'chqachilik, tog' oldi mintaqalari, Amudaryoning quyi oqimi va Orol bo'yi qamishzor va to'qayli hududlarida go'shtdor qoramolchilik, go'sht-yog' qo'ychiligi, yilqichilik, cho'l yaylovlarida qorako'lchilik rivojlantirildi. Kammahsul mollarni chatishtirish va respublikaga ko'plab nasldor mollarni olib kelish natijasida qoramollarning qora-ola, qizil cho'l, shvis, bushuev zotlari soni ko'payib mahsuldor podalar guruhi shakllantirildi. Zotlarning rayonlashtirilgan hududlari belgilandi. Qorako'lchilikni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratildi. Ixtisoslashtirilgan yirik qorako'lchilik xo'jaliklari katta iqtisodiy samara keltirdi.

1930—33 yillardan boshlab chorvachilikning naslchilik zavodlari, xo'jaliklari, fermalari, stansiyalari va korxonalarining tashkil etilishi naslchilik tizimining shakllanishida muhim burilish bo'ldi.

1932 yil chorvachilik tajriba stansiyasi va 1935—39 yillarda Butunittifoq qorako'chilik, O'zbekiston chorvachilik va O'zbekiston veterinariya i.t. institutlarining tashkil etilishi chorvachilikda ilmiy tadqiqot ishlarini o'tkazish, chorvachilik fanini rivojlantirish hamda uning istiqbolini belgilash, xo'jaliklarda yangi texnologiyalarni joriy etishda muhim omil bo'ldi. CHorva mollarining sermahsul podalari guruhi kengaytirildi va rayonlashtirilgan zotlari takomillashtirildi.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgach, qishloq xo'jaligida tub iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish jarayonida davlat xo'jaliklari jamoa, shirkat xo'jaliklariga aylantirildi, chorvachilik, aksariyat xo'jaliklarning qoramolchilik fermalari xususiylashtirildi, dehqon va chorvachilik yo'nalishidagi fermer xo'jaliklari tashkil etila boshladi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1993 yil 15 martda «Respublika chorvachiligida iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi, 1994 yil 23 fevralda «CHorvachilikda iqtisodiy islohotlarni takomillashtirish hamda dehqon (fermer) xo'jaliklari va xususiylashtirilgan fermalar manfaatlarini himoya qilish choralari to'g'risida», 1995 yil 24 martdagi «CHorvachilikda xususiylashtirishni davom ettirish va xususiylashtirishni qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida» qarorlariga ko'ra, jamoa xo'jaliklarining zarar bilan ishlayotgan 1499 qoramolchilik fermalari xususiylashtirildi (1995). Natijada respublikada ishlab chiqarilayotgan go'sht va sutning 75% ni xususiylashtirish sektor bera boshladi. O'zbekiston Respublikasining 1995 yil 25 dekabrda qabul qilingan «Naslchilik to'g'risida» qonuni chorvachilikni rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

1990 - 2003 yillar mobaynida respublikaning barcha toifadagi xo'jaliklarida qoramollar soni 28,2% ga, sigirlar 38, qo'y va echkilar 7, otlar 36% ga, sut etishtirish 32,8% ga, go'sht etishtirish 18,6% ga ko'paydi, chorvachilik

mahsulotlarining asosiy qismi dehqon va fermer xo'jaliklari hissasiga to'g'ri keladi (O'zbekistonda mollar soni, chorvachilik mahsulotlarini etishtirish ko'rsatkichlari 2- va 3-jadvallarda berilgan).

2-jadval

O'zbekistonda etishtirilgan chorvachilik mahsulotlari (barcha toifadagi xo'jaliklarda, ming t)

Mahsulotlar	1991	2000	2006	2012
Go'sht (tirik vaznda)	491,8	841,5	865,1	935,5
Sut	3331,4	3636D	3721,3	4030,3
Tuxum (mln.dona)	2347,0	1252,9	1368,9	1611,4
Jun, teri	25,3	15834	16594	17632
Qorako'l teri (ming dona)	1475,8	743,5	688,1	689,3

CHorvachilik ozuqa bazasini mustaxkamlash tadbirlari olib borilmokda. Respublika ekin maydonlarining 10% ga yaqin kismiga em-xashak ekinlari ekiladi.



Tabiiy va madaniy yaylovlardan foydalanish samaradorligini oshirish ishlari davom etmoqda. Aralash em, oqsil-mineral em qo'shimchalari, em ozuqa achitqilari ishlab chiqarish hajmlari ko'paymoqda. CHorvachilikda veterinariya xizmati ko'rsatish — kasalliklarning oldini olish va davolash, chorvachilik mahsulotlari veterinariya-sanitariya ekspertizasi hayvonlar kasalliklariga qarshi kurash stansiyalari, veterinariya shifoxonalari va punktlarida, veterinariya

laboratoriyalarda olib boriladi.

3-jadval

O'zbekistonda mollar va parrandalar soni (barcha toifadagi xo'jaliklar bo'yicha, mingbosh)

	1991	2000	2006	2012
Qoramol	4580,8	5281,8	5416,1	5477,6
shu jumladan	1856,4	2310,0	2361,8	2393,2
sigirlar				
qo'y va echkilar	9229,6	8863,6	9022,6	9233,9
parrandalar	36025,6	14521	14828,7	15354,9

Respublikada chorvador mutaxassislar kollejlari, Toshkent agrar universiteti, Samarqand, Andijon qishloq xo'jalik institutlarida tayyorlanadi. CHorva hayvonlari zotini yaxshilash, mahsuldor podalar guruhini ko'paytirish va yangi texnologiyalarni ishlab chiqarishga joriy etish maqsadida Respublika Qishloq va suv xo'jaligi vazirligining CHorvachilik, parrandachilik va baliqchilikni rivojlantirish, Bosh boshqarmasi, CHorvachilikda naslchilik ishlari bosh davlat inspeksiyasi, Davlat veterinariya Bosh boshqarmasi va «O'zbek ipagi» uyushmasi tashkil etilgan, ularni asrash va parvarishlashda yangi texnologiyalarni ishlab chiqish bilan vazirlikning Qishloq xo'jaligi ilmiy- ishlab chiqarish markazi tarkibidagi O'zbekiston chorvachilik, Qorako'lchilik va cho'l ekologiyasi institutlari, Baliqchilikni rivojlantirish ilmiy tadqiqot markazi va Ipakchilik instituti, O'zbekiston veterinariya, O'zbekiston veterinariya-sanitariya va akarologiya (1991) institutlari shug'ullanadi. Toshkent viloyati YAngiyo'l tumanida davlat mintaqaviy baliq chavoqlari etishtirish pitomnigida baliq zotlari (kora, ok, amur, do'ng peshona) etishtiriladi.

«Nasl xizmat» respublika naslchilik uyushmasi qishloq xo'jalik sub'ektlariga chorvachilik bo'yicha xizmatlar ko'rsatadi. Davlat naslchilik korxonasi qoramollarning turli zotlari bo'yicha sun'iy urug'lantirishda foydalanish uchun muzlatilgan urug'larni qadoqlab, sun'iy urug'lantirish bilan shug'ullanuvchi «Nasl xizmat» tashkilotlariga etkazib beradi.

CHet mamlakatlarda sut va go'sht yo'nalishidagi qoramolchilik, ayniqsa, Evropa mamlakatlari (Gollandiya, Daniya, Germaniya, Rossiya), AQSH, Kanada, YAngi Zelandiya, qo'ychilik Angliya, Avstraliya, Rossiya va b. Evropa mamlakatlarida jadal rivojlandi. Sutchilik yo'nalishidagi qoramolchilik rivojlangan davlatlarda (AQSH, Kanada, Niderlandiya, Germaniya va b.) sigirlardan o'rtacha 8000—11000 kg sut sog'ib olinadi. Sut mahsulotlari bilan ta'minlanishning eng yuqori ko'rsatkichlari (aholi jon boshiga 1950 kg) YAngi Zelandiya, Daniya va Gollandiyaga xos. Qoramol go'shti bilan ta'minlanish esa Argentina (110 kg) va Urugvayga (106 kg) to'g'ri keladi. Jahon miqyosida chorvachilikning barcha sohalari ixtisoslashgan holda jadal rivojlanmokda. Sermahsul zotlar va samarali texnologiyalar yaratilib, chorvachilikka keng joriy qilinmoqda.



II - BOB. O'ZBEKISTON CHORVACHILIK YO'NALISHLARINING UMUMIY – GEOGRAFIK TAVSIFI

2.1. An'anaviy va yangicha chorvachilik yo'nalishlarining iqtisodiy ahamiyati

O'zbekistonda chorvachilik qishloq xo'jaligining etakchi sohalaridan biri bo'lib, aholini asosiy oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlashda alohida o'ringa ega. Ushbu tarmoqning qishloq xo'jaligi yalpi mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 46,3 foizni tashkil etadi.

Tarmoqning respublika iqtisodiyoti va aholini oziq-ovqat bilan ta'minlashdagi muhim ahamiyatini inobatga olgan holda, sohani rivojlantirish va mavjud imkoniyatlardan keng foydalanishga qaratilgan "O'zbekistonda chorvachilikni barqaror rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash" loyihasi amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi, Birlashgan Millatlar Tashkiloti Taraqqiyot dasturi (BMTTD) va Isroil davlatining Tashqi ishlar vazirligi huzuridagi Isroil taraqqiyot va hamkorlik bo'yicha MASHAV milliy agentligi hamkorligida amalga oshirilayotgan islohotlarni o'rganish, sohada mavjud sohani barqaror rivojlantirish strategiyasini aniqlashga ko'mak berishdan iborat. Loyiha doirasida tayyorlangan "O'zbekistonda chorvachilik: bugungi holat, muammolar va taraqqiyot istiqbollari" (Agrar sektorni rivojlantirish tendensiyalari nuqtai nazaridan tahlil) deb nomlangan nashrda istiqbol yillarida olib borilayotgan izchil islohot bosqichlari va chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish jarayoni tahlil qilingan. Unda chorvachilikning rivojlanishidagi muammolar hamda sohaning mahsuldorligini oshirish imkoniyatlarini cheklaydigan omillarga e'tibor qaratilgan.

Xususan, chorvachilik fermalari, ozuqa ekin maydonlari ko'rsatkichlari, qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilariga xizmat ko'rsatish infratuzilmalari bilan bog'liq omillarning soha samaradorligiga ta'siri batafsil o'rganib chiqilgan. Mazkur nashr kitobxonlar hamda tashkilotlarga hozirgi kunda O'zbekistonda chorvachilik sohasining rivojlanishi haqida foydali ma'lumot berib, u chorvachilikni barqaror rivojlantirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratish orqali

qishloq joylarining rivojlanishi hamda qishloq aholisi farovonligini oshirishga qaratilgan mutasaddi tashkilotlar rahbarlari hamda chorvadorlar o'rtasidagi muloqotlarni davom ettirishda ko'maklashadi, deb umid qilamiz.

Istiqlol yillarida O'zbekiston qishloq xo'jaligida erishilgan asosiy natijalar Mamlakat qishloq xo'jaligida olib borilayotgan islohotlar muhtaram Prezidentimiz I.Karimov tomonidan belgilab berilgan besh tamoyil asosida bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda. Istiqlolning dastlabki yillaridan boshlab, qishloqda aholi uchun qulay va zamonoviy shart-sharoitlarni yaratish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlari sifatida qaraldi. O'tgan vaqt ichida iqtisodiy islohotlar qishloq xo'jaligining chorvachilik yo'nalishlarda quyidagicha amalga oshirildi:

iqtisodiyotning barqaror rivojlantirishda qishloq xo'jaligi, xususan chorvachilik muhim ahamiyat kasb etadi. Mamlakatimizda aholining chorvachilik mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojini qondirish, bozorlarda go'sht, sut, tuxum, baliq va boshqa mahsulotlar ko'payishini ta'minlashga ustivor vazifalardan biri bo'lib hisoblanadi. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006 yil 23 martda qabul qilingan "SHaxsiy yordamchi, dehqon va fermer xo'jaliklarida chorva mollarini ko'paytirishni rag'batlantirish chora – tadbirlari to'g'risida"gi hamda 2008 yil 21 apreldagi "SHaxsiy yordamchi, dehqon va fermer xo'jaliklarida chorva mollar ko'paytirishni rag'batlantirishni kuchaytirish hamda chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishni kengaytirish borasidagi qo'shimcha chora – tadbirlar to'g'risida"gi qarorlari muhim dasturilamal bo'lib xizmat qilmoqda.

Aholiga qulay bo'lgan joylarda zooveterinariya, em sotish va boshqa servis xizmatlari ko'rsatish bo'yicha infratuzilmalar tarmog'i yangidan tashkil qilindi. Eng asosiysi shaxsiy yordamchi va dehqon xo'jaliklarida chorvachilikni rivojlantirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi va tijorat banklari tomonidan qoramol sotib olish uchun mikrokreditlar ajratish masalasi hal etildi.

CHorvachilikda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar natijasida, barcha toifa xo'jaliklarda qoramollar soni 2010 yilda 9093,7 ming boshga etkazilib, 1991 yilga nisbatan 3981,1 ming boshga yoki 77 foizga, shu jumladan sigirlar soni 3763,6

ming boshga etkazilib, 1991 yilga nisbatan 1643,6 ming boshga yoki 77 foizga ko'paydi.

Ana shu davrda barcha toifa xo'jaliklarda qo'y va echkilar soni 5231 ming boshga yoki 52 foizga, parrandalar 2532,9 ming boshga yoki 7 foizga ko'paygan.

SHaxsiy yordamchi xo'jaliklarida qoramollar bosh soni 1991 yilga nisbatan 2010 yilda 5018,1 mingtaga yoki 144 foizga, shu jumladan sigirlar 1876,4 mingtaga yoki 111 foizga, qo'y va echkilar 7366,2 yoki 154 foizga, parrandalar 11717,0 mingtaga yoki 108 foizga ko'paygan.

CHorvachilikka ixtisoslashtirilgan fermer xo'jaliklarida ham chorva mollari va parrandalar bosh sonining ko'payishiga erishilgan.

Respublikadagi chorvachilikka ixtisoslashgan fermer xo'jaliklarida 2006 yilda qoramollar bosh soni 375,6 ming boshni tashkil qilgan bo'lsa, 2010 yil yakuni bo'yicha ular 501,7 ming boshga etkazilib, to'rt yilda 126,1 ming boshga yoki 34 foizga ko'paygan. Ana shu davrda sigirlar bosh soni 51,3 ming boshga yoki 42,2 foizga ko'payganligi, keyingi yillarda mollar bosh sonini yanada ko'paytirishga hamda go'sht va sut mahsulotlarini sezilarli darajada oshirishga zamin yaratadi.

Respublikadagi chorvachilikka ixtisoslashgan fermer xo'jaliklarida 1992 yilda qoramollar bosh soni 66,3 ming boshni tashkil qilgan bo'lsa, 2010 yil yakuni bo'yicha ularning soni 501,7 mingtaga etkazilib, 435,4 ming boshga ko'paygan. Ana shu davrda sigirlar bosh soni 147,5 ming boshga yoki 6,8 martaga ko'payganligi, keyingi yillarda mollar bosh sonini yanada ko'paytirishga hamda go'sht va sut mahsulotlarini sezilarli darajada oshirishga zamin yaratadi.

Barcha toifadagi xo'jaliklarda 1991 yilda 800,2 ming tonna go'sht, 3331,4 ming tonna sut, 2347 mln. dona tuxum ishlab chiqarilgan bo'lsa, 2010 yil yakuniga ko'ra go'sht ishlab chiqarish 1461,4 ming tonnaga, sut-6169 ming tonnaga va tuxum 3059 mln. donaga etkazildi.

Bugungi kunda respublika bo'yicha ishlab chiqarilgan go'shtning 95 foizi, sutning 96,1 va tuxumning 58 foizi shaxsiy yordamchi, dehqon xo'jaliklari xisobiga to'g'ri kelmoqda.

Respublikamiz viloyatlari bo'yicha 2005 yilda zooveterinariya servis xizmatlarini ko'rsatadigan shaxobchalar soni 1768 ta bo'lgan bo'lsa, 2006-2010 yillarda qo'shimcha 823 ta shaxobchalar yangidan tashkil qilinib, ularning soni 2591 taga etkazildi.

Avstriyadan onalarining sut mahsuldorligi 11 mingdan 16 ming litrgacha bo'lgan 20 bosh naslli buqalar "O'z naslchilik" korxonasiga keltirilib, ulardan ham urug' ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi. Jami Avstriyadan sotib olingan yuqori ko'rsatgichlarga ega bo'lgan naslli mollarning 9 tasi shvis, 9 tasi Golshtin zotiga va 2 tasi simmental (flekvi) zotiga mansubdir.

Naslli buqalar urug'ini o'zimizda ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish maqsadida respublikadagi naslchilik toifasiga kirgan xo'jaliklardan ham 38 ta naslli buqalar tanlab olinib, bugungi kunda 30 tasidan urug' olinmoqda.

2008 yilda "O'z naslchilik" korxonasida 60314 doza urug' ishlab chiqarilgan bo'lsa, 2012 yilda bu ko'rsatgich 1700 ming dozaga etkazildi.

Mollarning sifatini qisqa davr ichida yaxshilash va ularning mahsuldorlik ko'rsatgichini oshirish hisobiga chorvachilik mahsulotlar ishlab chiqarishni yanada ko'paytirishda sun'iy urug'lantirishning ahamiyati beqiyosdir. Bu yo'nalishdagi ishlar yildan-yilga kuchayib bormoqda.

2011-2012 yillarda shaxsiy yordamchi, dehqon va fermer xo'jaliklaridagi sigir va qochirish yoshidagi tanalarning 30 foizini sun'iy urug'lantirish, sun'iy urug'lantirishning afzalliklari to'g'risida, aholi o'rtasida targ'ibot qilinishi natijasida, 2005 yilda 32064 bosh mollar sun'iy urug'lantirilgan bo'lsa, 2012 yilga kelib, 1300 ming bosh sigir va qochirish yoshidagi tanalar sun'iy urug'lantirildi.

Respublika bo'yicha 2005 yilda naslchilik toifasiga kirgan fermer xo'jaliklar soni 263 tani tashkil etgan bo'lsa, 2011 yil yakuni bo'yicha ularning soni 387 taga etkazilib, 124 taga ko'paydi.

Respublikamizdagi naslchilik xo'jaliklardan 2005 yilda 1939 bosh naslli mollar tayyorlanib, shaxsiy yordamchi, dehqon va fermer xo'jaliklariga sotilgan bo'lsa 2011 yilda respublikadagi 387 ta naslchilik xo'jaliklardan 6188 bosh naslli qoramollar sotilishiga erishildi.

Bundan tashqari respublikamizda naslli mollar sonini ko'paytirish maqsadida, xorijiy davlatlardan naslli mollar sotib olishga ham e'tibor berildi. So'ngi to'rt yilda respublikamizga Belorussiya, Ukraina, Pol'sha, Avstriya, Germaniya, SHvesiya davlatlaridan O'zbekistonda rayonlashtirilgan qora-ola, golshtin, shvis, qizil-cho'l zotiga mansub bo'lgan 17817 bosh qoramollar import bo'yicha sotib olindi. Bu xolat chet mamlakatlardan naslli mol sotib olgan xo'jaliklardan yuqori mahsuldorlikka ega bo'lgan yiliga 3500-4000 bosh naslli mol tayyorlab, sotishga imkon yaratildi.

Qishloq xo'jaligini mexanizasiyalash. So'nggi yillarda olingan muhim ilmiy va amaliy natijalar:

- 1). Qorako'l qo'ylar, parrandalar, baliq va ipak qurtining yangi zotlari, turlari va krosslari yaratildi;
- 2). Qoramollar, qorako'l qo'ylar, parrandalar, baliq va ipak qurtini parvarishlashning ilg'or texnologiyalari yaratildi;
- 3). CHorvachilik uchun samarali va arzon veterinariya preparatlari va davolash-profilaktika usullari yaratildi;

CHorvachilikda turli urchitish usullarida sut va sut-go'sht yo'nalishidagi qoramollarning asosiy seleksiya belgilarini takomillashtirish va yuqori nasl qiymatli seleksiya podalarini yaratishga qaratilgan tadqiqotlarda qizil cho'l va shvis zotli qoramollarning naslchilik podalarida sof zotli urchitish va chatishtirish usullaridan olingan sigirlarning asosiy seleksiya belgilari o'rganildi. Bunda qizil cho'l zotli sigirlarni angler zotiga mansub buqalar bilan chatishtirishdan olingan sigirlarning sut mahsuldorligi 122-165 kg, shvis zotli sigirlarni Amerika seleksiyasiga mansub shvis zotli buqalar bilan chatishtirishdan olingan sigirlarni sut mahsuldorligi 69,6-224,4 kg-ga oshishi aniqlandi.

Qoramollarni o'sishini va mahsuldorligini oshirishda biologik faol organomineral qo'shimchalar bilan boyitilgan oziqlantirishning maqbul texnologiyasini ishlab chiqish maqsadida rasionga qo'shimcha ravishda qo'shilgan oqlangan va bentonitli gillarni kimyoviy tarkibi aniqlandi. Natijada sigirlar rasiondagi quruq moddaga nisbatan 3% miqdorda oqlangan moyli gil mineral

qo'shimchasi hamda 2 % miqdorda bentonitli gillari qo'shib oziqlantirish sigirlarning kunlik sut sog'imi miqdorini 5,7-8,0 % oshishi aniqlandi.

Hisor zotli qo'ylar naslini takomillashtirish, mahsuldorlik sifatini oshirish va zavod tizimini shakllantirish bo'yicha 50 bosh ona qo'y va 3 bosh naslli qo'chqor alohida seleksiya guruhiga ajratilib, ularning mahsuldorlik ko'rsatkichlari o'rganildi. 100 bosh qo'zilar baholanib, turli klasslarga ajratildi. Bu qo'zilarining jami 48,2 % va urg'ochilarining 59,2% elita va I-klassga mansubligi aniqlandi. SHunda katta yoshli qo'chqorlarning o'rtacha tirik vazni 80,0 kg, jun qirqim miqdori 3,4 kg, ona qo'ylarniki esa mos ravishda 60,0 kg va 2,6 kg ni tashkil etganligi aniqlandi.

Jundor va sutdor echkilarning nasl, mahsuldorlik ko'rsatkichlarini aniqlash bo'yicha 200 bosh ona echkilarning yangi suruvi tashkil etildi, 70 bosh uloqlar bonitirovka qilinib, 8 bosh yuqori nasldor takalar bilan 200 bosh ona echkilar urug'lantirildi. Sutdor 8 bosh ona echkinining har 10 kunlik sog'ib olingan sutning kimyoviy tarkibi o'rganildi. Bunda oqsil miqdori 3-4%, yog' miqdori 3,5-4% va qand miqdori 4,3-5,7% ni tashkil etishi aniqlandi.

Qorabayir zotli otlarni yangi geneologik guruhlarini yaratish va mavjudlarini takomillashtirish usullarini ishlab chiqish maqsadida juftlash rejasi asosida uyurlar tashkil etildi. 17 bosh ayg'ir va 52 bosh biyalar bonitirovka qilinib, majmua belgilari bo'yicha baholandi va klasslarga ajratildi. 21 bosh qulunlar onalaridan ajratilib, sovuq usulda tamg'alandi.

Veterinariyada:

1.Respublika Prezidentining PQ-308 va PQ-842-sonli qarorlariga binoan dehqon va fermer xo'jaliklarida xo'jaliklarida veterinariya preparatlari ta'minoti tanqisligini va mamlakatimiz chorvachiligida qo'llanilayotgan veterinariya preparatlarini asosan xorijiy mamlakatlardan keltirilayotganligini hisobga olgan holda, ilmiy - tadqiqotlar mahalliy zaxiralardan foydalanib raqobatbardosh biopreparatlar yaratishga yo'naltirilgan. Institutda ishlab chiqarilayotgan biopreparatlar hisobiga chet ellardan keltirish uchun sarflanayotgan Davlat valyutasini tejash imkoni yaratildi.

2. Ilmiy-tadqiqot ishlari natijalarini ishlab chiqarishga joriy etish bo'yicha Respublika veterinariya xizmatining veterinariya preparatlariga bo'lgan ehtiyojini hisobga olib, bugungi kunda institutda 14 xildagi veterinariya preparatlari ishlab chiqarilib, chorvachilik xo'jaliklariga shartnoma orqali etkazib berilayapti:

- qo'zilarning kolibakterioz kasalligiga qarshi vaksina;
- buzoq, qo'zi va cho'chqa bolalari kolibakterioz va sal'monellyoz kasalliklariga qarshi vaksina;
- qishloq xo'jalik hayvonlarning pasterellyoz, kolibakterioz, sal'monellyoziga qarshi polivalent radiovaksina;
- qo'zilar va buzoqlarning pasterellyoz, kolibakterioz, sal'monellyoziga qarshi giperimmunoson zardobi;
- qishloq xo'jalik hayvonlarning quturishiga qarshi universal vaksina;
- qo'ylar pasterellyoziga qarshi vaksina;
- brusellyozni aniqlovchi vosita;
- monoftorin;
- natriy sitrat tuzi.

3. SHu bilan birga 220 litr quturish kasalligiga qarshi vaksinasini, 100 litr pasterellyoz kasalligiga qarshi, 150 litr radiovaksinani, 80 litr kolibakterioz kasalligiga qarshi vaksinalarning zaxirasi yaratildi.

4. Undan tashqari, ilmiy-tadqiqot ishlari yakuni jarayonida yana 5-ta yangi preparatlar laboratoriya sinovidan o'tkazilib, chegaralangan miqdorda amaliyot sinovi o'tkazilmoqda:

- qo'zilar diplokokkoziga qarshi vaksina;
- hayvonlarni qorason kasalligiga qarshi vaksina (tajriba seriya);
- yosh mollar oshqozon-ichak kasalliklarga qarshi qon gidrolizati;
- quturish kasalligiga qarshi tirik donador vaksina;
- hayvonlar exinokokkoziga qarshi vaksina;
- qishloq xo'jalik hayvonlari leptospiroz kasalligiga qarshi vaksina (tajriba seriya).

Qorako'chilikda:

1. Qorako'lichilikda qorako'l qo'zilar kolostral uviz immunitetini, uviz sutining immunologik xususiyatlarini va ko'rsatkichlarini aniqlandi. "Tomdi", "Saribel", "Nurota" va "Saxobota" naslchilik xo'jaliklarida qora, ko'k, sur va zarmalla qorako'l qo'ylarining nasl resurslarini to'ldirish maqsadida jami 2811 bosh, shu jumladan, 1041 bosh elita va 1770 bosh birinchi sinfga mansub naslli qo'chqorchalar, 9600 bosh urg'ochi qo'zilar baholandi.

2. Nasl xususiyatlari bo'yicha 2811 bosh katta yoshli naslli qo'chqorlar aprotasiyadan o'tkazilib, ulardan 222 boshi yaroqsiz deb topildi.

3. Ko'k rangli qorako'l qo'ylarini urchituvchi "Tomdi", "Oyoqquduq", "Qizilcha" va "Sayxon" naslchilik zavodlarida 4000 bosh ko'k rangli va 3500 bosh geterozigot qora rangli qo'ylar tanlanib, ulardan olingan avlodlar individual bonitirovka qilindi.

4. Kelgusida foydalanish uchun 780 bosh havorang, 830 bosh kumushsimon va 138 bosh oqtushgan rang-baranglikdagi ko'k qorako'l qo'zilar tanlab olindi.

5. Mahalliy ozuqa (paxta shroti, omuxta em, arpa, beda pichani, kepaklar, somon, shuvoq, yantoq, xashaklar)ning asosiy ozuqabop moddalari aniqlanib, ozuqalarning protein miqdori, sifati baholandi, ozuqa aralashmasining optimal varianti tayyorlandi.

Ipakchilikda:

1. Ipakchilikda tut ipak qurtining O'zbekiston-5 va O'zbekiston-6 duragaylaridan Xorazm, Andijon va Surxondaryo viloyatlarida har qutidan 5,0 kg atrofida qo'shimcha pilla hosili olishga erishildi.

2. Orzu, Yulduz, Go'zal va Marvarid zotlari tarkibida ko'p tuxum beradigan tizimlarning birinchi avlodi boqildi va ularning tuxum mahsuldorligi birmuncha yuqori ekani aniqlandi.

3. 1-tizim va 2-tizim urg'ochi kapalaklarini letal genlari bo'yicha muvozanatlashtirilgan S.8, Zafar va Ilg'or zotlari bilan chatishtirilib 10 dan ziyod sanoatbop duragaylar olindi.

4. Ipak tolasini texnologik xususiyatlarini yaxshilash maqsadida mahalliy yirik pillali ipak qurti zotlarini kerakli genlar bilan boyitish uchun geografik kelib

chiqishi o'zgacha bo'lgan ingichka tolali zotlar bilan chatishtirish uslublari ilk bor qo'llanilib, yuqori texnologik xususiyatga ega bo'lgan ingichka tola beruvchi 4 ta yangi tizim va 2 ta yangi duragay kombinasiyalari yaratildi.

Baliqchilikda:

1. Baliqchilikda omuxta emsiz baliq etishtirish texnologiyasi takomillashtirildi.

2. Baliqlarni hovuzlarda jadal usulda etishtirish me'yorlari belgilandi va ularni etishtirish parametrlari aniqlandi, 1 kv. metrdan 35-50 kg mahsulot etishtirish texnologik ko'rsatkichlari ilmiy asoslab berildi.

3. Aydar-Arnasoy ko'llar majmuasidagi ovlanadigan baliqlar faunasi, baliq resurslarini qayta etishtirish bo'yicha Aydar-Arnasoy ko'llar tizimida 16 tur baliqlardan 9 turi ovlanish ahamiyatiga ega bo'lganligi aniqlandi.

Parrandachilikda:

1. Parrandachilikda qon transferrin oqsili bo'yicha yuqori darajada irsiy polimorfizmga ega tipli tovuqlarning serpushtligi va tuxum vazni yuqori bo'lib, 1000 ta tuxumga ozuqa kam sarf bo'lganligi aniqlandi.

2. Ilmiy markazning olimlari tomonidan parrandachilikda seleksiyaning yangi usullarini qo'llab, serpusht tovuqlarning yuqori mahsuldor ikki tizimli "O'zbekiston" krossi yaratildi.

3. "O'zbekiston" krossiga mansub tovuqlarning yuqori maxsuldor guruhlar yaratildi, serpushtligi 255-260 dona tuxumga etkazildi.

2.2. Chorvachilik yo'nalishlarining hududiy imkoniyatlari

CHorvachilik – O'zbekiston qishloq xo'jaligining etakchi tarmoqlaridan biri, mamlakatda ishlab chiqarilgan qishloq xo'jalik mahsulotining taxminan 45 foizi uning ulushiga to'g'ri keladi. Tarmoqning asosiy xususiyati shundaki, chorva mahsulotlarining katta qismi shaxsiy yordamchi va dehqon xo'jaliklarida ishlab chiqariladi. Ularga tegishli er uchastkalarining o'rtacha hajmi 0,15 gektarni tashkil qiladi. Qoramollarning 93 foizi dehqon xo'jaliklari ulushiga to'g'ri keladi. 2011

yilning sentyabrida dehqon va fermer xo'jaliklari vakillari o'rtasida o'tkazilgan so'rov qoramol boqayotgan o'rtacha dehqon xo'jaligi 2,8 bosh qoramolga, jumladan, 1,1 bosh sigirga (fermerlar uy xo'jaliklarida ushbu ko'rsatkichlar tegishli ravishda 4,4 va 1,8 bosh) ega ekanini ko'rsatdi. Bunda qoramol parvarish qilish bilan shug'ullanayotgan o'rtacha fermer xo'jaliklarida taxminan 55 bosh qoramol, jumladan, 21 bosh sigir bor.

1991 yildan boshlab mamlakatda qoramol soni qariyb 1,5 baravar ko'paydi va bu O'zbekiston qishloq xo'jaligi yalpi mahsuloti hajmida chorva mahsulotlari ulushining oshishiga ta'sir ko'rsatdi. Bu ko'rsatkich 80 yillardagi 30-35 foizdan 1997 yildan keyin 45-50 foizga o'sdi. Bu yuksalish MDHda asosiy chorva mahsulotlari ishlab chiqaruvchilar sanalgan Rossiya, Ukraina, Belarus, Qozog'iston va Qirg'iziston kabi mamlakatlar bo'yicha shunday ma'lumotlar bilan taqqoslanganda yanada yaqqolroq namoyon bo'ladi. 1990-2006 yillarda ushbu mamlakatlarda qishloq xo'jalik mahsulotlarida chorvalikning ulushi 55-60 foizdan 45 foizga kamaygan.

CHorvachilikning asosiy mahsuloti – sut va go'sht ishlab chiqarishning o'sishi jamiyatni rivojlantirish uchun muhim ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatga egadir. Negaki, bu mahsulotlar asosiy oziq-ovqat guruhiga kiradi va qishloq aholisi daromadining muhim manbaidir, soha muvaffaqiyatli rivojlanganida esa eksportbop tovarlar hajmi ko'payadi.

2011 yilning sentyabrida dehqon va fermer xo'jaliklari vakillari o'rtasida o'tkazilgan so'rov natijalari chorvachilik, ayniqsa, qoramol parvarish qilish tarmog'ining qishloq aholisi oilalarining farovonligiga jiddiy ijobiy ta'sir qilishini ko'rsatdi. CHorvachilikni rivojlantirish chorva mollarining asosiy qismi parvarish qilinayotgan shaxsiy yordamchi va dehqon xo'jaliklariga ega oilalarga g'oyat samarali ta'sir ko'rsatadi.

CHorvachilik samaradorligi ham oilalar daromadi uchun yanada katta ahamiyatga ega. Daromadi past va yuqori bo'lgan guruhlar o'rtacha vakillari parvarish qilayotgan chorva mollari sonidagi farq unchalik katta bo'lmasa-da, chorva mollari sifatini ifoda etuvchi ko'rsatkichlar bo'yicha farq ancha sezilarlidir.

Masalan, jon boshiga daromadi yuqori bo'lgan oilalarda qoramollar o'rtacha podasi soni daromadi past oilalardagi poda sonidan 1,4 marta ko'p, ushbu mollar narxi esa 2, qoramol mahsuloti narxi esa 2,8 baravar ortiq. Daromadi yuqori oilalarda bitta sigirdan sog'ib olinadigan sut 1,2 baravar ko'pdir. Boshqacha aytganda, dehqon oilalari farovonligi foydalanilayotgan er uchastkasi katta-kichikligi emas, balki muayyan darajada chorva mollari sifati va ularni parvarish qilishga ham bog'liqdir.

SHuningdek, qoramol parvarish qilish sektori dehqon xo'jaliklarida chorvachilikning rivojlangan sohasi hisoblanadi. Yana shuni ta'kidlash kerakki, chorvachilik dehqon xo'jaliklarida oilada mablag' jamg'arish va uni ko'paytirishdek o'ziga xos vazifani bajaradi. O'zbekistonda aholi hozircha jamg'arilgan mablag'larni foydali bank omonatlari va qimmatli qog'ozlarga sarflash kabi xizmatlardan keng foydalanmaydi. Bu, ayniqsa, moliyaviy infratuzilmadan keng foydalanish imkoniyatiga ega bo'lmagan qishloq aholisiga taalluqlidir. Ular uchun chorva mollarini sotib olish va parvarish qilish o'z mablag'larini sarflash va ko'paytirish uslublaridan biridir.

So'nggi yillarda chorvachilikda mamlakatda xo'jalik yuritishning ma'muriy-buyruqbozlik tizimidan bozor iqtisodiyotiga o'tishga qaratilgan chuqur ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar amalga oshirilgani tufayli keng ko'lamli tashkiliy o'zgarishlar ro'y berdi.

Mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlangan rentabelligi past qishloq xo'jalik korxonalari – sovxoz va kolxozlarni qayta tashkil etish jarayoni chorvachilikka muayyan darajada ta'sir ko'rsatdi. Negaki, qoramol parvarish qilayotgan fermalar asosan yirik paxtachilik xo'jaliklarida joylashgan edi. Sovxoz va kolxozlar, keyinchalik shirkatlar negizida shaxsiy qoramoliga ega chorvachilik fermer xo'jaliklari, shuningdek, jamoaviy mulkchilik shaklidagi ixtisoslashgan chorvachilik fermalari tashkil etildi.



Qishloq xo'jaligida faoliyat yuritishning yangi tashkiliy-huquqiy shaklining tashkil topish davrida hukumat chorvachilikda fermerlik va dehqonchilik harakatini keng qo'llab-quvvatladi. Aholiga qoramol sotib olish uchun imtiyozli kreditlar, xo'jalik va ozuqa ishlab chiqarishni tashkil etish uchun er uchastkalari ajratildi: chorva mahsulotlariga davlat buyurtmasi bekor qilindi, naslchilik ishlari rivojlangan xorijiy mamlakatlardan nasldor mollar sotib olindi, omuxta em ishlab chiqarish keng yo'lga qo'yildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006 yil 23 martda qabul qilingan "SHaxsiy yordamchi, dehqon va fermer xo'jaliklarida chorva mollarni ko'paytirishni rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 308-qarori chorvachilikni rivojlantirishda muhim omil bo'ldi. Ushbu hujjatda davlat tomonidan fermerlarga zotdor mollarni sotib olish va naslchilik ishini jadallashtirishda yordam berish, veterinariya xizmat ko'rsatishni tashkil etish, aholining mahsuldor chorva mollarini sotib olishi uchun mikrokreditlar ajratish, qishloq aholisining chorva mollarini parvarish qilishdan manfaatdorligini oshirish orqali ularning bandligini, daromadini, oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlanishini oshirishga alohida e'tibor qaratildi.

Qarorda shaxsiy yordamchi, dehqon va fermer xo'jaliklarini rivojlantirish hamda mustahkamlash, birinchi navbatda, qoramol boqish va etishtirish, shu asosda qishloq aholisining bandlik darajasini va oilalar daromadini oshirishning mavjud imkoniyatlaridan to'liq foydalanilmayotgani, chorva mollari boqayotgan shaxslarni ish bilan band aholi toifasiga kiritish va ularni ijtimoiy muhofaza qilish masalalari hal etilmagani, xo'jaliklarni zotdor, sermahsul chorva mollari bilan, omuxta em va shirali ozuqa bilan ta'minlash borasidagi ishlar qoniqarsiz ahvolda, zooveterinariya va boshqa servis xizmatlari ko'rsatish bo'yicha infratuzilma tarmog'i, shuningdek, shaxsiy yordamchi va dehqon xo'jaliklarida chorcachilikni rivojlantirishni mikrokreditlash tizimi yaxshi yo'lga qo'yilmagani qayd etilgan.

CHorva mollari bosh soni - samaradorlik omili. CHorva mollari soni chorcachilik ko'lamining asosiy ko'rsatkichi hisoblanadi. Qoramol parvarish qilish samaradorligi ko'rsatkichlari va sug'oriladigan hamda ekin maydonlari, fermer xo'jaligi ko'lamini hamda fermer xo'jaligida ish bilan bandlar sonini ifoda etuvchi ko'rsatkichlar o'rtasida ham shunday bog'liqlik bor. Boshqacha aytganda, chorcachilik xo'jaligining hajmi qanchalik katta bo'lsa, u o'rtacha shunchalik mahsuldordir. Bu bog'liqlikni ikki holat bilan izohlash mumkin:

1. Poda qanchalik katta bo'lsa va uni ta'minlash uchun resurslar ko'p ajratilsa, xo'jalik qoramol parvarish qilish sektorida faoliyat yuritishga ko'proq ixtisoslashadi. A.Smit davridan buyon ma'lum bo'lganidek, har qanday ixtisoslashuv samaradorlikning ortishiga xizmat qiladi. Ixtisoslashuv tanlangan faoliyat yo'nalishida takomillashish, ishlab chiqarishni tashkil etishning samarali uslublari va texnologiyalarni qo'llash imkonini beradi.

2. Poda qanchalik katta bo'lsa, "ko'lamdorlikdan tejash" hisobidan o'rtacha xarajatlarni kamaytirish imkoniyati shunchalik ko'p: podachi, cho'pon va boshqa ishchilar, bino, uni isitish, yoritish, ozuqa va veterinariya preparatlarini sotib olish (ulgurji chegirmalar) va hokazolar uchun xarajatlar. YA'ni, 10 bosh sigirni birgalikda parvarish qilish ularni alohida parvarish qilishdan ko'ra arzonroq. Xuddi shunday, bitta xo'jalikda 200 bosh sigirni parvarish qilish - har birida 10 tadan sigiri bo'lgan 20 ta xo'jalikdan ko'ra tejamliroqdir.



CHorvachilik xo'jaligining katta-kichikligi mahsuldorlik uchun muhim ahamiyat kasb etishi sababli fermer va dehqonlarning qo'shimcha mol sotib olishini rag'batlantirish, dehqon xo'jaliklari o'rtasida, shuningdek, dehqon va fermer xo'jaliklari o'rtasida kooperasiya aloqalarini rivojlantirish zarur. Kooperasiya (chorva mollarini birgalikda sotib olish, parvarish qilish, uskuna, ozuqalar va xizmatlarni birgalikda xarid qilish, mahsulot sotish va boshqalar) uning ishtirokchilariga "ko'lamdorlikdan tejash" samaradorligi va tijoriy mustaqillikni saqlagan holda ixtisoslashishdan foydalanish imkonini beradi.

Dehqon va fermer xo'jaliklari vakillari o'rtasida o'tkazilgan so'rov ushbu xo'jaliklarda qoramollar sonining ko'payishiga to'sqinlik qilayotgan asosiy sabablar: a)ozuqa bazasining etishmasligi; b) chorvachilik faoliyatini yuritish uchun er etishmasligi; v) chorva mollarini sotib olish uchun mablag' etishmasligi va bu, ayniqsa, dehqon xo'jaliklari uchun nihoyatda dolzarb ekanini ko'rsatdi.

Ozuqa bazasi muammolari quyida ko'rib chiqiladi.

Er maydoni va moliyaviy resurslar (boshlang'ich va aylanma kapital) taqchilligi muammolariga batafsil to'xtalib o'tish lozim.

Qishloq ishlab chiqaruvchilari chorvachilikni rivojlantirish uchun ajratishni istagan *erning etishmasligi* ikki asosiy holat bilan bog'liq:

1. Erdan xo'jaliklararo, jumladan, er maydonlaridan subijara uchun mavjud cheklovlar bilan bog'liq sabablar tufayli foydalanilmayotgani. Holbuki, qoramol parvarish qilishda yuksak natijalarga erishayotgan xo'jaliklar ham o'z o'sishining tabiiy chegarasiga ega. Bu foydalanilayotgan erni kengaytirish imkoni yo'qligi bilan bog'liqdir. Bu, o'z navbatida, xo'jalik yuritishning samarasiz shakl va uslublari o'rnini samaralilari bilan almashtirishni ta'minlaydigan bozor mexanizmlari O'zbekistonning agrar sektorida tegishli ravishda etarli qo'llanilmayotgani va tarmoq ahvoliga salbiy ta'sir ko'rsatayotganini anglatadi.

2. Erdan xo'jalik ichida foydalanishda (faqat fermer xo'jaliklariga taalluqli) erni paxta va g'alla ishlab chiqarish uchun ixtisoslashtirish yoki mo'ljallash bo'yicha mavjud normativlar bilan bog'liq ma'muriy cheklovlarning mavjudligi. fermer ushbu ikkita ekin uchun ajratilgan erdan boshqa maqsadlar, jumladan, chorva mollari parvarish qilish uchun erkin foydalana olmaydi. Avval o'tkazilgan tadqiqotlar paxta va g'alla etishtiriladigan erlarni kvotalashdan (qat'iy belgilab berishdan) voz kechish fermerlarga o'z resurslaridan davlatga paxta va don etkazib berishni kamaytirmagan holda, oqilona foydalanish imkoniyatini yaratadi. Davlat buyurtmasi saqlanib qolgan taqdirda ham erlarni kvotalashni bekor qilish ishlab chiqaruvchilar uchun ham, davlat uchun ham foydali bo'lar edi.

SHunday qilib, O'zbekistonda chorvachilikni rivojlantirish istiqbollari bevosita erga egalik huquqi va ayrim strategik qishloq xo'jalik ekinlarini etishtirishda davlat nazorati masalalarini hal etish bilan bog'liqdir.

Kredit resurslari taqchilligiga kelsak, ushbu muammo keskinligini yumshatish uchun mikromoliyalash sektorini rivojlantirishni rag'batlantirish, avvalambor, fermer va dehqon xo'jaliklarining bank mikro kreditlari, jumladan, imtiyozli foiz stavkalari bo'yicha olish imkoniyatini kengaytirish zarur. Negaki, erkin bozorda mikromoliyalash tashkilotlarining foiz stavkasi chorvadorlar uchun g'oyat yuqori.

Erdan foydalanish huquqini qayta sotish imkoniyatiga oid huquqiy bazani takomillashtirish, shuningdek, ushbu huquqlardan kredit olishda kafolat sifatida

foydalanish kredit resurslari taqchilligi muammosini hal etishga yordam beradi. Gap shundaki, qishloq xo'jalik erlaridan foydalanish huquqini beruvchi qonuniy bozor etarli darajada shakllanmagan bugungi kunda qishloq xo'jalik xodimlarining erni garovga qo'yish orqali kredit olish imkoniyatlari cheklangan. Agrar sektorni kredit bilan ta'minlashning aynan ushbu shakli butun dunyoda keng tarqalgan.

Ayni paytda, xo'jaliklar ko'lamini kengaytirish muammosining yana bir jihati – material resurslar va xizmatlardan foydalanish borasidagi qiyinchiliklar ham bor.

CHorvadorlar uchun ozuqalar, birinchi navbatda, omuxta em, shuningdek, zotdor chorva mollarini sotib olish katta muammo hisoblanadi. Talab yuqori bo'lgan, ammo, to'liq ko'rsatilmayotgan xizmatlar orasida mahsulotni saqlash va qayta ishlash xizmatlari mavjud. Resurslar va xizmatlarning muayyan bozorining yo'qligi vaziyatni yanada qiyinlashtirmoqda.

Yuqorida qayd etilganidek, so'nggi yillarda O'zbekiston hukumati chorva mollari sonining ko'payishini, jumladan, chorvachilik xo'jaliklari ko'lamini kengaytirish orqali har tomonlama rag'batlantirmoqda. Bu vazifani, avvalo, quyidagilar hisobidan hal qilish rejalashtirilmoqda:

- shaxsiy yordamchi va dehqon xo'jaliklarida chorvachilik bilan shug'ullanayotgan qishloq aholisiga ish bilan bandlik maqomini berish;
- qishloq joylardagi kam ta'minlangan va ko'p bolali oilalarga bepul qoramol berish;
- ozuqalar, veterinariya va chorvachilik tarmog'i uchun mo'ljallangan boshqa xizmatlardan foydalanishni yaxshilash;
- yordamchi va dehqon xo'jaliklarining qoramol sotib olishini engillashtirish uchun imtiyozli mikrokreditlash imkoniyatini kengaytirish.

Ushbu maqsadlarga erishish uchun quyidagi choralar nazarda tutildi:

- Qishloq aholisining shaxsiy yordamchi dehqon va fermer xo'jaliklarida chorvachilik ishlab chiqarishidagi ishtiroki endi davlat tomonidan pensiya bilan ta'minlash huquqiga ega bandlik sifatida ko'rib chiqiladi. Bu qoida chorva mahsulotlari sotilishi yoki oilada iste'mol qilinishidan qat'iy nazar qo'llaniladi.

- SHaxsiy yordamchi va dehqon xo'jaliklarida chorva mollari, shu jumladan, qishloq joylardagi kam ta'minlangan va ko'p bolali oilalarga bepul qoramol berish orqali ko'paytirishni rag'batlantirish. Bularning barchasi dehqon xo'jaliklarida qoramollar sonining 2005 yildagi 6 million boshdan 2010 yil oxirida 8,5 million boshgacha ko'payishiga yordam berishi lozim.

- Fermer xo'jaliklarida qoramollar sonini 2005 yildagi 330 ming boshdan 2010 yilda 660 ming boshga ko'paytirish borasida rag'batlantirish, ixtisoslashgan chorvachilik xo'jaliklari sonini 2005 yildagi 8 mingtadan 2011 yilda 11 mingtaga ko'paytirish. Fermer xo'jaliklarining qoramollar umumiy sonidagi ulushi 2005 yildagi 5 foiz o'rniga 2011 yilda taxminan 7,5 foizga oshishi lozim.

- Xizmat ko'rsatish punktlari tarmog'ini kengaytirish hisobidan veterinariya xizmatlari va sun'iy qochirish xizmatlaridan foydalanishni yaxshilash.

- SHaxsiy yordamchi, dehqon va fermer xo'jaliklariga zotdor mollarni sotish bo'yicha kimoshdi savdolarini tashkil etish. Dasturda 2006-2010 yillarda 100 ming bosh zotdor molni sotish ko'zda tutilgan.

- Qoramol sotib olishni engillashtirish uchun yordamchi va dehqon xo'jaliklarini mikro kreditlash imkoniyatlarini kengaytirish. 2006-2010 yillarda ushbu maqsadlarga 158 milliard so'm yo'naltirish, ularning 80 foizi tijorat banklari orqali berilishi (imtiyozli foizli stavkalar va taqdim etishning soddalashtirish tartibi bo'yicha) ko'zda tutildi.

- SHaxsiy yordamchi va dehqon xo'jaliklarining omuxta emdan foydalanishi, jumladan, mamlakatda omuxta em bilan savdo qiladigan shoxobchalar sonini etti baravarga, ya'ni, 2005 yildagi 113 ta o'rniga 2010 yilda 773 taga ko'paytirish orqali yaxshilash. Em ishlab chiqaruvchi korxonalar g'allani bevosita fermerlardan (davlat tomonidan etkazib berish kanallari bo'yicha emas) sotib olish imkoniga ega bo'lishi ko'zda tutildi.

- 2010 yilgacha bo'lgan davrda naslchilik korxonalari va xo'jaliklari naslchilikni rivojlantirish uchun respublikaga olib kelinadigan naslchilik materiallari, texnologiya va yordamchi uskunalarga boj to'lovlaridan (bojxona rasmiylashtiruvi yig'implari bundan mustasno) ozod qilindi.

2.3. Chorvachilikni rivojlantirishga ta'sir ko'rsatuvchi omillar

2011 yilning boshida respublikada qariyb 10 mingta chorvachilik fermer xo'jaligi va mas'uliyati cheklangan jamiyat shaklidagi 148 ta chorvachilik korxonasi faoliyat ko'rsatdi. Barcha toifadagi xo'jaliklarda qoramollar soni 2010 yilning oxirida 7,5 million bosh, jumladan sigirlar 3,1, qo'y va echkilar soni 12,6 million boshni tashkil qildi. 2010 yilda tirik vaznda 1,2 million tonna go'sht, 5,1 million tonna sut, 22,5 ming tonna jun ishlab chiqarildi.

Go'sht va sut ishlab chiqarishning katta qismi Samarqand, Toshkent va Qashqadaryo viloyatlari ulushiga to'g'ri keladi. Buni ushbu hududlarda aholi sonining ko'pligi, tabiiy yaylovlar (ilmikor erlar, dasht) va tog'oldi tumanlarda yaylovlar mavjudligi bilan izohlash mumkin. Bu viloyatlarda go'sht-sut etishtirish, qolgan viloyatlarda asosan sut etishtirish rivojlangan.

4- jadval

Qoramol podasi soni va chorvachilik samaradorligi ko'rsatkichlari (1912 yil)

Qoramol podasi soni, bosh	Xo'jaliklar soni	O'rtacha sut sog'ib olish, bitta sigirdan bir yilda, kg	Qoramol mahsulotining o'rtacha narxi, ming so'm	Qoramoldan olinadigan o'rtacha daromad, ming so'm
Dehqon xo'jaliklari				
1-2	373	843	196.3	-
3-5	208	899	384.5	-
6 va undan ko'p	51	1 034	1 116.8	-
Fermer xo'jaliklari				
1-20	97	935	2,386	523
21-50	148	1,131	7,257	1,858
51-100	85	1,246	15,030	4,644
101 va undan ko'p	41	1,463	55,450	25,915

Qo'y-echkilarni parvarish qilish ko'proq Qashqadaryo, Navoiy, Samarqand va Surxondaryo viloyatlarida keng tarqalgan.

CHorvachilik tarmog'i mahsuldorligini baholash O'zbekistonda uni rivojlantirishni hisobga oladigan yagona ko'rsatkichlarning yo'qligi tufayli biroz qiyin bo'ldi. Sut sog'ish bo'yicha rasmiy ma'lumotlarga qaraganda, mustaqillik yillarida ushbu ma'lumotlar deyarli o'zgargani yo'q. Biroq, ushbu davrda bir paytning o'zida qoramol soni (46 foiz) ko'paydi va yaylovlar (qariyb 40 foiz)

hamda ozuqa ekinlari maydoni (70 foizdan ortiq) qisqardi. YAylovlar va ozuqa ekinlari maydoni qisqarganiga qaramay, go'sht va sut ishlab chiqarish qoramol soni bilan mutanosib ravishda o'sdi. YA'ni, bu borada chorvachilik uchun mo'ljallangan erlardan foydalanish samaradorligi oshgani haqida gapirish mumkin. Ammo, chorvachilik mahsuldorligini baholashda yana bir boshqa muammo – dehqon xo'jaliklarida sut sog'ib olish haqidagi ishonchli statistika ma'lumotlari yo'qligi sababli qat'iy xulosa chiqarib bo'lmaydi. Negaki, bu ko'rsatkichlar fermer va dehqon xo'jaliklari vakillari o'rtasida o'tkazilgan so'rov natijalariga ko'ra, muayyan darajada (qariyb ikki baravar) oshirib ko'rsatilgan.

Har holda, rasmiy ma'lumotlarga yoki fermer va dehqon xo'jaliklari vakillari o'rtasida o'tkazilgan so'rov natijalariga tayanamiz, chorvachilik, jumladan, qoramol parvarish qilish tarmog'i mahsuldorligi hozircha past darajada. Buni, xususan, O'zbekiston va boshqa mamlakatlarda sut sog'ib olish ko'rsatkichlarini taqqoslash ham tasdiqlaydi. Bunda O'zbekistondagi ko'rsatkichlar nafaqat sut mahsulotlarining etakchi ishlab chiqaruvchilari bo'lgan mamlakatlar, balki, sobiq ittifoqdagi boshqa ko'plab davlatlarga qaraganda ham ancha past.

CHorvachilik tarmog'i mahsuldorligi ko'rsatkichlarining pastligi unga o'z ijtimoiy vazifasini to'liq amalga oshirish imkonini bermaydi. CHorva mahsulotlari eksporti bilan bog'liq iqtisodiy salohiyat haqida esa gapirmasa ham bo'ladi. 2010 yilda respublika bo'yicha aholi jon boshiga go'sht va sut ishlab chiqarish (iste'mol qilish) ko'rsatkichlari 1995 yilgi darajada saqlanib qoldi. 2010 yilda aholi jon boshiga go'sht ishlab chiqarish 22,9 kilogramm va sut ishlab chiqarish 181

kilogramni tashkil qildi. Bu belgilangan ovqatlanish normasidan ancha kam (tegishli ravishda 65 va 260 kilogramm).

Respublikada qoramol parvarish qilish tarmog'i samaradorligining nisbatan pastligining sababi nimada? Ushbu savolga javob berish uchun sektor mahsuldorligi va samaradorligiga ta'sir qiluvchi asosiy omillarni ajratib ko'rsatish mumkin. Bu borada statistika ma'lumotlari va 2010 yilgi fermer hamda dehqon xo'jaliklari vakillari o'rtasida o'tkazilgan so'rov natijalarining tahlili, shuningdek, ekspertlar bahosi yordam beradi. Samaradorlik omillarini tushunish esa, o'z navbatida, ushbu sektorni rivojlantirish uchun nima qilish kerakligini anglash imkonini beradi.

III - BOB. O'ZBEKISTONDA CHORVACHILIKNI RIVOJLANTIRISHGA ZAMONAVIY YONDASHUV

3.1. Intensiv chorvachilikni rivojlantirish omillari

CHorvachilik mahsulotlarining salmog'i respublikamizda paxtachilikni keyin ikkinchi o'rinda turadi. SHunga ko'ra uning hamma tarmoqlarini jadal rivojlantirish, mahsuldorligini oshirish, aholiga ko'plab sifatli chorva mahsulotlari etkazib berish muhim xalq xo'jalik ahamiyatiga ega.

Umuman qishloq xo'jalik tarmoqlarini intensivlash deganda asosan ishlab chiqarishni to'la mexanizasiyalash, ximizasiyalash va meliorasiyalash tushuniladi. Lekin bu birgalikda, mushtarak holda olib boriladigan barcha tadbirlar nihoyat katta muammolarni o'z ichiga qamrab oladi. Masalan, mexanizasiyalash ishlarida zamonaviy mashina va mexanizmlardan to'g'ri fisdalanish, mehnat jarayonlarini avtomatlashtirish va elektr energiyadan unumli foydalanish va uni to'g'ri sarflash muhim o'rin tutsa, ximizasiyalashda – dehqonchilikni gerbisid va mineral o'g'itlardan foydalanish, chorvachilikda sintetik moddalar, biologik preparatlar, antibiotiklar va boshqa mikrobiologik sintez mahsulotlaridan, vitamin va mikroelementlardan foydalanish muhim ahamiyatga ega.

Meliorasiya ishlari ham keng ma'noga ega bo'lgan jarayonlardan hisoblanadi. Masalan, ekin maydonlarini sug'orish, hosildorlikni oshirish, hayvonlarni suv bilan ta'minlashni yaxshilash kabilar shular jumlasidandir.

Ma'lumki, mehnat jarayonlari mexanizasiyalashtirilmagan mayda chorvachilik fermalarida xizmatchilar juda oz miqdordagi hayvonlarni parvarishlash va boqish ishlari bilan shug'ullansalar, yirik ferma va komplekslarda har bir ishchi ko'plab mollarga qaraydi, lekin bajaradigan texnologik jarayon nihoyat tor doirada bo'ladi.

Respublikamiz xo'jaliklarida chorva mollari va parranda mahsulotlarini tobora ko'proq etishtirishga fermalarda ishlab chiqarish va mehnatni tashkil qilishning yangi, istiqbolli texnologiyasini joriy qilish, ko'p mehnat talab qiladigan

ish jarayonlarini mexanizasiyalashtirish, qishloq xo'jaligining bu muhim tarmog'ini ixtisoslashtirish tufayli erishiladi. Lekin chorvachilikning barcha tarmoqlarini rivojlantirishda erishilgan hozirgi daraja xalq va zamon talabi darajasida emas.

Qoramolchilik respublikamiz chorvachiligining etakchi tarmog'i hisoblanadi. Barcha xo'jalik fermalaridan keladigan yalpi daromadning deyarli 55% i shu tarmoq hissasiga to'ri keladi. Lekin shunga qaramasdan qoramolchilikni jadal rivojlantirish borasida hali kamchiliklar mavjud. Masalan, ba'zi xo'jaliklarda barqaror em – xashak bazasini yaratish sohasida mavjud bo'lgan omillardan unumli foydalanish sust bormoqda, mollarning mahsuldorligini ko'paytirishga etarli e'tibor berilmaydi.

5 – jadval

CHorva mollari ko'payishiga to'sqinlik qilayotgan asosiy sabablar, foizda (2012 yil)

Dehqon xo'jaliklari	Fermer xo'jaliklari
• YAylovlar, ozuqa etishmaydi - 49,4 • Qoramol sotib olish va uni saqlash uchun mablag' yo'q - 38,2 • Er maydoni etishmaydi - 32,7 • Qoramollar uchun bino yo'q - 18,3	• Fermer uchastkasida er etishmaydi - 54,4 • Ozuqa bilan bog'liq qiyinchiliklar – 50 • Mol sotib olishga mablag' yo'q – 22,1 • Mollar uchun bino etishmaydi - 13 • Qoramollarga qarash uchun ishchi etishmaydi – 6,5

CHorvachilikning barcha tarmoqlarini jadal rivojlantirishda eng muhim va asosiy yo'l ishlab chiqarish jarayonlarini intensivlash hisoblanadi. Buning natijasida barcha fermalarda ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga erishish mumkin.

CHorvachilikni intensivlash iqtisodiy, tashkiliy va zootexnika muammolari bilan bevosita bog'liqdir. Bu uchchala muammoni hal qilish chorvachilik tarmoqlarini butun respublika viloyatlarida jadal rivojlantirish imkonini beradi.

CHorvachilik tarmoqlarini ikki yo'l bilan, ya'ni ekstensiv va intensiv tarzda boshqarish mumkin.

Ekstensiv usulda boshqarilganda mollar va parrandalar soni ko'paytirilmaydi, katta hajmdagi moslashtirilgan chorva va parranda binolari qurilmaydi, ishlab chiqarish jarayonlarini har tomondan to'la mexanizasiyalashtirish uchun maxsus apparat va mashinalar sotib olinmaydi, naslchilik ishlari, mollarning zotini yaxshilash, mahsuldorligini keskin oshirish ishlari olib borilmaydi, ularni boqish, semirtirish, saqlash va asrash ishlari xonaki usulda, ilg'or xo'jaliklar tajribasidan foydalanilmagan holda olib boriladi. SHunga ko'ra, bu usul bilan chorvachilik mahsulotlarini ko'proq etishtirish va sifatini yaxshilash ancha qiyin bo'ladi.

CHorvachilikni intensiv usulda boshqarish esa asosiy ishlab chiqarish fondlarini ko'paytira borish, ishlab chiqarishga ko'proq mablag' sarflash, shu asosda har bosh mol hisobiga olinadigan yalpi mahsulot va sof daromad miqdorini muntazam ravishda oshira borish nazarda tutiladi.

CHorvachilikni intensivlashtirish, ishlab chiqarishni yiriklashtirish, mol boqish va parvarish qilishning ilg'or, hozirgi zamon usullarini joriy qilishni taqozo qiladi.

Hozirgi vaqtda respublikamiz chorvachiligining barcha tarmoqlari intensiv usulda rivojlantirilmogda.

Intensivlashtirishning muhim omillaridan biri texnika taraqqiyoti – chorvachilikda mashina va texnika vositalaridan unumli foydalanish hisoblanadi. SHuningdek, ishlab chiqarishda energetika, elektrlashtirish va avtomatlashtirish ishlari muhim o'rin tutadi.

CHorvachilik tarmoqlarini intensiv rivojlantirishning ikkinchi muhim omili – ishlab chiqarishni ximiyalashtirish hisoblanib, bunda asosiy e'tibor hayvon oziqlaridan unumli foydalanishga qaratilgan bo'ladi. Masalan, omixta em, biologik stimulyatorlar, aminokislotalar, oziqbop achitqilar, antibiotiklar, vitaminlar, mikroelementlar, shuningdek, karbamid va boshqa vositalardan foydalanish hisoblanadi.

Chorvachilik tarmoqlarini intensivlash omillari ishlab chiqarish jarayonlarining sifat jihatlarini aks ettiradi va tarmoqlarini rivojlantirishga nimalar ta'sir etadi, degan savolga javob beradi. Intensivlashtirish ko'rsatkichlari esa rivojlantirishning miqdor jihatini ko'rsatadi.

Chorvachilikda intensivlash tadbirlari o'z ichiga nihoyat ko'p masalalarni qamrab olgani holda ularni shartli ravishda uchta katta guruhga bo'lishi mumkin.

Birinchi guruh quyidagi ko'rsatkichlarni o'z ichiga oladi:

1. Har bir bosh hayvon uchun sarflangan ishlab chiqarish harajatlari va ularni pulga (pul qiymatiga) aylantirgan holda moddiy va mehnat sarflarining umumiy miqdori.
2. Har bir bosh hayvon hisobiga sarflangan ishlab chiqarish vositalari qiymati (amortizatsiya harajatlari bundan mustasno) bilan ishlatilgan jami mablag'lar miqdori.
3. Har yuz gektar erga to'g'ri keladigan hayvonlar miqdori.
4. Bir yuz gektar er hisobiga chorvachilikda sarflangan ishlab chiqarish harajatlari.

Ikkinchi guruh ko'rsatkichlari:

1. Bir yoki yuz bosh hayvon hisobiga etishtirilgan yalpi mahsulotning pulga aylantirilgan miqdori.
2. Har yuz gektar er maydoni hisobiga etishtirilgan chorvachilik mahsulotlari (barcha turlari bo'yicha va umumiysi).

Uchinchi guruh ko'rsatkichlari:

1. Har bir bosh hayvon hisobiga olinadigan yalpi daromad, pul hisobida.
2. Har bir bosh hayvon hisobiga olingan sof daromad.
3. Ishlab chiqarishning rentabellik darajasi.

Respublikamiz viloyatlarida o'z faoliyatlarini davom ettirayotgan ko'plab chorvachilik komplekslarida va yiriklashgan fermalarda ko'p mehnat talab qiladigan texnologik jarayonlarni yuqori darajada mexanizatsiyalashtirilishi natijasida xizmatchi – xodimlar sonini birmuncha kamaytirish imoniyatiga ega bo'lindi. SHunga ko'ra, hozirgi vaqtda, har bir kishiga birlashtirilgan mollarning soni

mehnat jarayonlari to'la mexanizasiyalashmagan fermalarnikiga qaraganda 2,5 – 3 marta ko'proqdir. Buning natijasida ikki smenali ish kuniga va haftasiga bir kun dam olish imkoniga ega bo'lish mehnatni ilmiy asosda tashkil qilish hamda har bir yoki yuz bosh mol hisobiga bo'ladigan turli harajatlarni qisqartirish imkoniga ega bo'lindi.

Sut etishtirishga ixtisoslashgan, bir qator davlat va jamoa xo'jaliklarida sut qoramolchiligining intensivligi ko'p jihatdan podaning tarkibiga bog'liqdir. Masalan, ko'plab tavsiyalarga qaraganda, podadagi sigirlar salmog'ini 35% dan kamida 65% ga etkazish talab etiladi. Bunda agar o'rtacha har bir sigirdan 3000 kg dan sut sog'ib olinsa, intensivlik va samaradorlik 44,6%ga ortishi mumkinligi tajribalarda sinab ko'rilgan. Bunga asosiy sabab, poda tarkibida sigirlar salmog'i ortishi bilan sarflanadigan em – xashak evaziga olinadigan mahsulot ham ko'paya borishidir.

Respublikamizdagi ko'plab ilg'or davlat xo'jaliklarida sigirlarni sifatli va to'yimli oziqlar bilan boqish ham o'z ta'sirini ko'rsatmoqda. Maslan, bir bosh sigir uchun sarflangan em – xashak miqdori ortib borishi bilan birga sigirlardan sog'ib olinayotgan sut ko'payib, sifati yaxshilanmoqda.

So'nggi yillarda respublikamizda ko'plab ilg'or xo'jaliklar chlrwachilikni intensiv rivojlantirishga astoydil kirishganlar. Bu borada sigirlarning qisir qolishiga yo'l qo'ymaslik, har bir govmushdan yiliga bittadan sog'lom buzoq olish muhim o'rin tutadi.

SHunday qilib, chorvachilik fermalari va komplekslarida, parrandachilik fabrikalarida ko'plab mahsulot etishtirish, ularning tannarxini pasaytirish juda muhimdir.

Xo'jaliklarda zamonaviy chorvachilik binolarini qurish, og'ir qo'l mehnati talab etadigan ishlarni to'la mexanizasiyashtirish va avtomatlashtirish, mehnat va mablag' harajatlarini kamaytirish, barcha texnologik jarayonlarni ilmiy asosda boshqarish, mahsulot etishtirishda mehnat unumdoriligi va iqtisodiy samaradorlikni oshirish muhim ahamiyatga ega. Buning uchun barcha chorvachilik tarmoqlarini intensivlashtirish, mustahkam em – xashak bazasini barpo etish,

ulardan tejab – tergap foydalanish, mollarni boqish va parvarish qilish ishlarini yaxshilash, kasalliklardan saqlash kabi tadbirlarni o'z vaqtida amalga oshirish zarur. SHundagina chorvachilikning barcha tarmoqlari tez rivojlanadi, mahsulotning sifati yaxshilanib, tannarxi arzonlashadi va xalqning tobora o'sib borayotgan talabini to'la ta'minlash imkoniyati yaratiladi.

3.2. O'zbekistonda chorvachilik majmualarini hududiy joylashtirishning yangicha imkoniyatlari

O'zbekiston Markaziy Osiyoda eng yirik, qishloq xo'jaligi yaxshi rivojlangan davlatlardan biri hisoblanadi.

Respublikamizning hamma viloyatlarida chorvachilikni jadal rivojlantirish va uning iqtisodiy samaradorligini yuksaltirish uchun ko'plab muhim tabdirlarni amalga oshirish talab etiladi. Masalan, hozirgi vaqtda mavjud bo'lgan chorvachilik fermalarini yanada kengaytirish, chorvachilik komplekslari va parrandachilik fabrikalarining loyihadagi quvvatini tezroq o'zlashtirish, naslchilik ishlarini yanada takomillashtirish, bu tarmoqqa istiqbolli, hozirgi zamon texnologiyasini va ilg'orlar tajribasii keng joriy etish, em – xashak bazasini yanada mustahkamlash, barcha mehnat jarayonlarining mexanizasiyalashtirish darajasini oshirish, chorvachilik uchun bilimli kadrlar tayyorlash hamda ularning malakasi va mahoratini oshirish borasida ko'pgina tadbirlarni amalga oshirish shular jumlasidandir.

CHorvachilikning muhim, salmoqli va etakchi tarmog'i hisoblangan qoramolchilikni jadal rivojlantirish va bu sohadagi barcha omillardan samarali foydalanish xalqimiz uchun ko'p, sifatli va arzon chorva mahsulotlarini etishtirib berishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ishlab chiqarish jarayonlarini mexanizasiyalash va shu yo'l bilan mahsulot sifatini yaxshilash, tannarxini kamaytirish sohasida qishloq xo'jaligi texnika ta'minoti xodimlari kuch – g'ayrat sarflashga da'vat etilganlar. Xalqimizning chorvachilik mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojini to'la qondirish uchun

respublikamizda etarli imkoniyatlar bor. Ilg'or tajribalar shuni ko'rsatib turibdi. Hamma gap ana shu imkoniyatlardan ishning ko'zini bilgan holda tadbirkorlik bilan unumli foydalanishdadir.

Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini to'g'ri va rasional ixtisoslashtirish hamda joylashtirish mahsulot birligiga kam mablag' va mehnat sarflagan holda ko'plab turli xil arzon va sifatli mahsulotlar etishtirishning muhim shartlaridandir.

Ishlab chiqarishni ixtisoslashtirish ayni vaqtda uni bir joyga markazlashtirmasdan yoki yiriklashtirmasdan turib yaxshi natija bermaydi. Yirik xo'jaliklarda ishlab chiqarishni kompleks mexanizasiyalash, ishlab chiqarishga yangi takomillashgan texnologiyani joriy qilish, mehnatni ilmiy asosda tashkil etish, xo'jalikni boshqarishni takomillashtirish va nihoyat oshiqcha harajatlarni kamaytirish imkonini beradi.

Ishlab chiqarishni ixtisoslashtirish yoki markazlashtirishni mushtarak ravishda birga olib borish pirovard natijada tannarxni kamaytiradi, mehnat unumdorligi va rentabellik darajasini oshiradi.

CHorvachilik tarmoqlarini markazlashtirish yirik fermalarni tashkil qilish va shu sohani ixtisoslashtirish masalalari bilan bog'liq. Ishlab chiqarishni markazlashtirish o'z o'rnida uni intensivlash (jadallashtirish) jarayonlari bilan ham chambarchas bog'liqdir.

CHorvachilikni ixtisoslashtirish va markazlashtirish ilmiy – texnika taraqqiyoti bilan bog'liq holda olib boriladi. SHunda mahsulot ishlab chiqarishni sanoat asosiga ko'chirish, fan yutuqlari va ilg'orlar tajribalarini joriy etish, mehnatni ilmiy asosda tashkil qilish, muayyan tarmoqni boshqarishni takomillashtirish muhim o'rin tutadi.

CHorvachilikni ixtisoslashtirish ko'p jihatdan xo'jaliklararo va davlat muassasalari bilan jamoa xo'jaliklari ishlab chiqarish birlashmalarini tashkil etishga bog'liqdir.

Davlat va jamoa xo'jaliklararo ishlab chiqarish kooperasiyalarini vujudga keltirish, zamonaviy texnologik jarayonlarni joriy etish alohida o'rin tutadi. Buning uchun faqat ko'plab chorvachilik mahsulotlari etishtirish bilan cheklanib

qolmasdan, ularni yil mobaynida bir me'yorda, sifatini pasaytirmagan, oziq turlaridan unumli foydalangan, mehnat samaradorligini oshirgan holda etishtirish talab etiladi.

Respublikamizdagi bir qancha davlat va jamoa xo'jaliklarining chorvachilik fermalarida barcha texnologik jarayonlar to'la ixtisoslashtirilganligi tufayli mehnat unumdorligi 2-3 marta yuksak bo'lgani holdi 1 s. go'shtning tannarxi 35 – 40 %ga va 1 s. sutning tannarxi 22-38%ga arzonlashganligini ko'rsatish mumkin.

Qo'ychilikni ixtisoslashtirish. Respublikamizdagi iqtisodchi olimlar tavsiyasiga ko'ra barcha viloyatlarning tabiiy va iqtisodiy sharoitlarini hisobga olgan holda qo'ychilik fermalari hajmini belgilashda yaylovlarning hajmi, ularning joylashgan o'rni, qo'ychilikda foydalanish uchun ajratilgan em – xashak maydoni, yaylovlarning hosildorligi kabilarni hisobga olgan holda jamoa xo'jaliklaridagi qo'ychilik fermalari o'rta hisobda 6 – 10 ming bosh qo'yga mo'ljallangan bo'lishi maqsadga muvofiqdir. Bunda olib borilgan tajriba va kuzatishlarga qaraganda, qo'ychilik mahsulotlarini etishtirish samaradorligi birmuncha yuksak darajada bo'lar ekan.

Parrandachilikni ixtisoslashtirish. Respublikamiz davlat va jamoa xo'jaliklaridagi barcha turdagi parrandachilik fermalarining minimal hajmi 3 ming tovuq, 6 ming jo'ja va fermani to'ldirish uchun ajratilgan 3 ming makiyon jo'jadan tashkil topgan bo'lsa, u ko'p jihatdan ijobiy natijalar berishi aniqlangan. SHuningdek, parrandachilik fermalarining mo'tadil hajmida, bu ko'rsatkich 6 va 12 ming boshni tashkil etishi maqsadga muvofiq hisoblanadi. Agar ayrim tumanlarda xo'jaliklararo parrandachilik fermalari tashkil etilgan bo'lsa, uning hajmi 40 – 50 ming ona tovuqlarga mo'ljallangan bo'lishi yuqori natijalarga olib kelishi aniqlangan.

SHunday qilib, chorvachilik tarmoqlarini ixtisoslashtirish va mexanizasiyalash, zamonaviy texnologik jarayonlarni to'g'ri joriy etish, mehnatni ilmiy asosda tashkil qilish va mehnat unumdorligi oshirishi hamda mahsulot tannarxini arzonlashtirish bilan rentabellik darajasini oshirish imkoniga ega bo'linadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 20 oktyabrda qabul qilingan "Oziq-ov jarayoni chorvachilikka muayyan darajada ta'sir ko'rsatdi. Negaki, qoramol parvarish qilayotgan fermalar asosan yirik paxtachilik xo'jaliklarida joylashgan edi. Sovхоз va kolхозlar, keyinchalik shirkatlar negizida shaxsiy qoramoliga ega chorvachilik fermer xo'jaliklari, shuningdek, jamoaviy mulkchilik shaklidagi ixtisoslashgan chorvachilik fermalari tashkil etildi.

Qishloq xo'jaligida faoliyat yuritishning yangi tashkiliy-huquqiy shaklining tashkil topish davrida hukumat chorvachilikda fermerlik va dehqonchilik harakatini keng qo'llab-quvvatladi. Aholiga qoramol sotib olish uchun imtiyozli kreditlar, xo'jalik va ozuqa ishlab chiqarishni tashkil etish uchun er uchastkalari ajratildi: chorva mahsulotlariga davlat buyurtmasi bekor qilindi, naslchilik ishlari rivojlangan xorijiy mamlakatlardan nasldor mollar sotib olindi, omuxta em ishlab chiqarish keng yo'lga qo'yildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006 yil 23 martda qabul qilingan "SHaxsiy yordamchi, dehqon va fermer xo'jaliklarida chorva mollarni ko'paytirishni rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 308-qarori chorvachilikni rivojlantirishda muhim omil bo'ldi. Ushbu hujjatda davlat tomonidan fermerlarga zotdor mollarni sotib olish va naslchilik ishini jadallashtirishda yordam berish, veterinariya xizmat ko'rsatishni tashkil etish, aholining mahsuldor chorva mollarini sotib olishi uchun mikrokreditlar ajratish, qishloq aholisining chorva mollarini parvarish qilishdan manfaatdorligini oshirish orqali ularning bandligini, daromadini, oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlanishini oshirishga alohida e'tibor qaratildi.

Qarorda shaxsiy yordamchi, dehqon va fermer xo'jaliklarini rivojlantirish hamda mustahkamlash, birinchi navbatda, qoramol boqish va etishtirish, shu asosda qishloq aholisining bandlik darajasini va oilalar daromadini oshirishning mavjud imkoniyatlaridan to'liq foydalanilmayotgani, chorva mollarini boqayotgan shaxslarni ish bilan band aholi toifasiga kiritish va ularni ijtimoiy muhofaza qilish masalalari hal etilmagani, xo'jaliklarni zotdor, sermahsul chorva mollari bilan, omuxta em va shirali ozuqa bilan ta'minlash borasidagi ishlar qoniqarsiz ahvolda,

zooveterinariya va boshqa servis xizmatlari ko'rsatish bo'yicha infratuzilma tarmog'i, shuningdek, shaxsiy yordamchi va dehqon xo'jaliklarida chorvachilikni rivojlantirishni mikroreditlash tizimi yaxshi yo'lga qo'yilmagani qayd etilgan.

Hujjatda quyidagi maqsadlarni ko'zda tutuvchi 2006-2010 yillar davrida shaxsiy yordamchi, dehqon va fermer xo'jaliklarida chorva mollari, birinchi navbatda qoramollar sonini ko'paytirishni rag'batlantirish dasturi ma'qullandi:

- chorva mahsulotlari ishlab chiqarish bilan band dehqon va fermer xo'jaliklari sonini ko'paytirish;
- chorva mollari mahsuldorligini oshirish;
- daromad darajasini oshirishda qishloq aholisi imkoniyatlarini kengaytirish.

Xulosa

CHorvachilik O'zbekiston qishloq xo'jaligining obikor dehqonchilikdan keyingi muhim tarmog'idir. Respublikamizda qorako'lchilik xalqaro ahamiyat kasb etgan. Uning chorvachiligi tabiiy va iqtisodiy omillar hamda ozuqa resurslariga bog'liq holda mintaqalar bo'yicha ixtisoslashib, rivojlanib bormoqda.

O'zbekiston hukumatining jamoa va shaxsiy chorvachilikni rivojlantirish borasidagi g'amxo'rliги tufayli chorva mollarining soni ortib, mahsulot ko'payib bormoqda. CHorvachilikda fermer xo'jaliklari tashkil etilgan.

Iqtisodiyotning barqaror rivojlantirishda qishloq xo'jaligi, xususan chorvachilik muhim ahamiyat kasb etadi. Mamlakatimizda aholining chorvachilik mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojini qondirish, bozorlarda go'sht, sut, tuxum, baliq va boshqa mahsulotlar ko'payishini ta'minlashga ustivor vazifalardan biri bo'lib hisoblanadi. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006 yil 23 martda qabul qilingan "SHaxsiy yordamchi, dehqon va fermer xo'jaliklarida chorva mollarini ko'paytirishni rag'batlantirish chora – tadbirlari to'g'risida"gi hamda 2008 yil 21 apreldagi "SHaxsiy yordamchi, dehqon va fermer xo'jaliklarida chorva mollar ko'paytirishni rag'batlantirishni kuchaytirish hamda chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishni kengaytirish borasidagi qo'shimcha chora – tadbirlar to'g'risida"gi qarorlari muhim dasturilamal bo'lib xizmat qilmoqda.

Aholiga qulay bo'lgan joylarda zooveterinariya, em sotish va boshqa servis xizmatlari ko'rsatish bo'yicha infratuzilmalar tarmog'i yangidan tashkil qilindi. Eng asosiysi shaxsiy yordamchi va dehqon xo'jaliklarida chorvachilikni rivojlantirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi va tijorat banklari tomonidan qoramol sotib olish uchun mikrokreditlar ajratish masalasi hal etildi.

Qishloq xo'jaligi - O'zbekiston iqtisodiyotining muhim tarmog'i hisoblanadi. 2012 yilda uning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 21,7 foizni tashkil qildi. Qishloq xo'jaligida mamlakat iqtisodiy faol aholisining 26,5 foizi mehnat qiladi.

Mamlakatda ishlab chiqarilgan qishloq xo'jalik mahsulotlarining taxminan 45 foizi chorvachilik ulushiga to'g'ri keladi. 1991 yildan buyon qoramollar soni qariyb 1,5 baravar ko'paydi va bu go'sht va sut ishlab chiqarish hajmini oshirishda, O'zbekiston qishloq xo'jaligi yalpi mahsulotida chorva mahsulotlari ulushining o'sishida muhim omil bo'ldi. CHorvachilik muhim ijtimoiy ahamiyatga ega. Sohada asosan go'sht va sut ishlab chiqariladi. Bu mahsulotlar muhim oziq-ovqat mahsulotlari guruhiga kiradi va qishloq aholisi daromadining muhim qismidir.

Ta'kidlash joizki, qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlash tarmog'ining etarlicha rivojlanmagani bilan bog'liq muammolarni hal etish uchun choralar ko'rilmogda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009 yil 26 yanvardagi "Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishni kengaytirish va ichki bozorni to'ldirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 1047-Qarori buni tasdiqlaydi. Ushbu hujjatga ko'ra, sut va go'shtni qayta ishlash bilan shug'ullanadigan ishlab chiqaruvchilarga qo'shimcha imtiyozlar berish, jumladan, mikrofirmalar va kichik korxonalar uchun yagona soliq to'lovini 50 foizga kamaytirish ko'zda tutilgan.

SHunday qilib, tahlillar shuni ko'rsatadiki, quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish chorvachilik xo'jaliklarini kattalashtirish va tijoratlashtirish darajasini yuksaltirishga yordam beradi:

1. CHorva mollari mahsuldorligi va sifatini oshirish.
2. Erni xo'jaliklararo va xo'jalik ichida, jumladan, er uchastkalaridan foydalanish huquqlarini (subijara huquqi, ijara huquqini sotib olish huquqi va boshqalar).
3. CHorva mollarini parvarishlash va chorva mahsulotini sotishni tashkil etishda sa'y-harakatlarni birlashtirish uchun dehqon xo'jaliklari o'rtasida, dehqon va fermer xo'jaliklari o'rtasida kooperasiya aloqalarini kengaytirish.
4. Raqobatni rivojlantirish, ma'muriy to'siqlarni bartaraf etish va bozor infratuzilmasini rivojlantirish orqali resurslar va chorva mahsulotlari bozorini takomillashtirish.
5. Qishloq joylarda mikromoliyalash sohasini kengaytirishni rag'batlan-tirish.

6. CHorva mahsulotlarini qayta ishlash tarmog'ini rivojlantirishni rag'batlantirish.

SHuningdek, chorvachilikni rivojlantirish masalalarini o'rganish, ayni paytda, sohaga oid muammolarni tushunish va ularni hal etishning qulay yo'llarini belgilash sifatli statistika axborotining etishmasligi bois qiyinlashadi.

So'nggi yillarda O'zbekiston hukumati chorvachilikni rivojlantirish, ayniqsa, qoramol parvarish qilishga alohida e'tibor qaratmoqda va mavjud muammolarni hal etish yo'llarini topishga tayyor. Sohani rivojlantirish shart-sharoitlarini takomillashtirishga doir rejalashtirilayotgan choralar bundan yaqqol dalolat beradi. Jumladan, bu borada zotdor mollarni xarid qilish va naslchilik ishini jadallashtirish, veterinariya xizmati ko'rsatishni tashkil etishga davlat tomonidan yordam berish, mahsuldor mollarni sotib olish uchun mikrokreditlar ajratish, ozuqa ekinlari uchun ajratilgan erlardan maqsadsiz foydalanishga barham berish, qishloq aholisining chorva mollari parvarish qilishdan manfaatdorligini oshirishga oid choralarni O'zbekistonda chorvachilik yanada kuchaytirish rejalashtirilmoqda.

Bu choralarning barchasi, so'zsiz, ijobiy natija beradi va soha samaradorligini oshirishga, demak mamlakat aholisining farovonligini yanada oksaltirishga xizmat qiladi. Rejalashtirilgan chora-tadbirlarning amalga oshirilishi bu boradagi asosiy masala hisoblanadi.

YAna shuni e'tiborga olish lozimki, chorvachilikka oid muammolar qishloq xo'jalik tarmog'ining umumiy muammolari bilan chambarchas bog'liqdir. Zero, sohani rivojlantirish istiqbollari bevosita mamlakatda agrar islohotlarning amalga oshirilishiga bog'liq. Xususan, bizningcha, bu borada quyidagilar muhim o'rin tutadi:

- xo'jalik ichidagi erlarni ekinlar o'rtasida erkin qayta taqsimlanishiga erishish. Bunda fermerlar ekin maydonlari tuzilmasini bozordagi taklif va talabga muvofiq, shuningdek, o'zlarining uzoq muddatli manfaatini hisobga olgan holda (chunonchi, tuproq unumdorligini saqlash) maqbullashtirish imkoniga ega bo'ladi;

- erni subijaraga berishning huquqiy bazasi va erdan foydalanish huquqini qayta sotish, shuningdek, ushbu huquqlardan kredit olishda kafolat sifatida foydalanish imkoniyatini takomillashtirish.

Bunday chora-tadbirlar erdan xo'jaliklararo darajada foydalanishni ma'qbullashtirish, shuningdek, fermerlarning moliyaviy resurslardan bahramand bo'lish imkoniyatlarini yanada kengaytirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

- 1 Karimov I.A. O'zbekiston buyuk kelajak sari. – T.: "O'zbekiston", 1999 y.
- 2 Karimov I.A. Mamlakatimiz taraqqiyoti va xalqimizning hayot darajasini yuksaltirish-barcha demokratik yangilanish va iqtisodiy islohatlarimizning pirovard maqsadidir.T. «O'zbekiston», 2007 y.
- 3 Karimov I.A. “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch” T.: "O'zbekiston", 2008 y.
- 4 Karimov I.A. Jahon moliyaviy - iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari.-T.: "O'zbekiston", 2009 y. 56 b.
- 5 Avezbaev S.A. Quyi Amudaryo tekisliklarida yerlardan unumli foydalanish (rus tilida). – Toshkent: Mehnat, 1990. - 156 c.
- 6 Tahliliy tavsiyanoma «Agrosug'urta: xalqaro tajriba, O'zbekistondagi hozirgi holat va taraqqiyot imkoniyatlari», (rus tilida) 2008. Birlashgan Millatlar Tashkiloti Taraqqiyot Dasturining O'zbekistondagi vakolatxonasi nashri.
- 7 Taxliliy tavsiyanoma «Paxtaga davlat buyurtmasi: mexanizmlarni takomillashtirish imkoniyatlari». Toshkent, 2007. O'zbekistondagi iqtisodiy islohotlarga ko'maklashish BEARING POINT loyihasi yordamida nashr etilgan.
- 8 Taxliliy tavsiyanoma «O'zbekistonda chorvachilikning barqaror rivojlanishi: hozirgi ahvol va tavsiyalar». BMTTDning “O'zbekistonda chorvachilik sohasining barqaror rivojlanishini qo'llab quvvatlash” loyihasi tomonidan tayyorlangan. Toshkent 1(11)2008. Professor Svi Lerman.
- 9 Varlamov A.A., Volkov S.N. Erdan foydalanish samaradorligini oshirish (rus tilida). - M.: Agropromizdat, 1991. – 143 sahifa.
- 10 Volkov S.N. Er islohoti sharoitida er taqsimlanishi. (Ekonomika, ekologiya, huquq) (rus tilida).- M.: Bilina, 1998. - 526 sahifa.
- 11 Grechixin V.N. Hozirgi zamon bosqichida O'zbekiston er fondidan

- foydalanishni prognozlashtirish va rejalashtirish (rus tilida).- Toshkent: Mehnat, 1990. – 147 s.
- 12 Dmitriev N.G. CHorvachilik asoslari (rus tilida). M., 1969 y.
 - 13 O'zbekiston Respublikasining “Suv va suvdan foydalanish” to'g'risidagi qonuni. Toshkent, 1993.
 - 14 O'zbekiston Respublikasi Er kodeksi. Toshkent, 1998.
 - 15 O'zbekiston Respublikasi Er fondi (1991-2008 yillar).
 - 16 I. Stanchin, S. Lerman. Turkmanistonda agrar islohot (rus tilida), 2003.
 - 17 Karamatov O. O. Er bozori: real sharoit va istiqbollari (rus tilida) - Jalolobod: Ilim, 2004. - 176 s.
 - 18 O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi (Asosiy Qonuni). Toshkent: Adolat, 1998 - 78 s.
 - 19 Iqtisodiy nazariya kursi: oliy ta'lim o'quv yurtlari talabalari uchun o'quv qo'llanmasi (rus tilida). Mualliflik jamoasi rahbari va muharrir – A.V.Sidorovich; M.V. Lomonosov nomli Moskva davlat universiteti. - Moskva: «Delo i servis» nashriyoti, 2007. – 1040 s.
 - 20 O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksi. Toshkent, 2008.
 - 21 O'zbekiston Respublikasi er zahiralari holati va ulardan foydalanish to'g'risidagi Milliy hisobot (1991-2008 yillar).
 - 22 Sosiologik so'rov natijalari bo'yicha hisobot (BMTTDning “O'zbekistonda chorvachilik sohasining barqaror rivojlanishini qo'llab-quvvatlash” loyihasi buyurtmasiga muvofiq fermer va dehqon xo'jaliklari so'rovi), Toshkent, 2007. Ijro etuvchi idora: “TAHLIL” Ijtimoiy tadqiqotlar markazi.
 - 23 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006 yil 23 matidagi “SHaxsiy tomorqa, dehqon va fermer xo'jaliklarida chorva bosh sonini oshirishni rag'batlantirish bo'yicha chora-tadbirlar” to'g'risidagi 306- sonli Farmoyishi.
 - 24 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 21 apreldagi 842-sonli Farmoyishi.
 - 25 Rumyanseva E.E. YAngi iqtisodiy ensiklopediya (rus tilida). – M.: INFRA-

M, 2008.-YI, 826 s.

- 26 O'zbekiston qishloq xo'jaligi. Statistik to'plam (rus tilida). (1991-2008 yillar).
- 27 O'zbekiston statistik sharhi. (1991 – 2008 yillar).
- 28 Tolipov G.A. “O'zbekiston yer zahirolari va ulardan oqilona foydalanish muammolari” (rus tilida).- Toshkent, 1992. – 236 s.
- 29 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 20 oktyabrdagi “Ekin maydonlarini optimallashtirish va oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishni oshirish” to'g'risidagi 4041-sonli Farmoni.
- 30 Xusanov R.X. Agrar islohot: tendensiya, amaliyot, muammolar. - Toshkent: O'zbekiston, 1994. – 74 s.
- 31 Lerman S. Sobiq Sovet Ittifoqida qishloq xo'jaligining qayta tiklanishi: er islohotlari va xo'jaliklar qayta shakllantirilishining 15 yili sharhi (ingliz tilida), Post-Soviet Economies, Vol. 20, No. 4, pp. 391-412 (December 2008).
- 32 CHertoviskiy A.S., Bazarov A.K. O'zbekiston erdan foydalanish tizimi. - T: «Fan». 2007. – 415 s.
- 33 Yusupov Y. Agrar islohot davom etmoqda (rus tilida). «Novosti Uzbekistana», 2008 yil 31 oktyabr.
- 34 <http://www.ziynet.uz> – O'zbek Axborot Ta'lim tarmog'i
- 35 <http://www.geografiya.ru>
- 36 <http://www.wgeo.ru>